2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 53 (1114), 2024-yil 14-mart, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

KO‘NGILLARDAN RUTUBAT KETDI

Har yili keng nishonlanadigan bayramlardan biri Navro‘zi olam ota-bobolarimizning qarashlarini, milliy qiyofasini ko‘rsatadigan, ezgulikni ulug‘lab, xalqimiz diliga hayotsevarlik, bunyodkorlik, mehr-muruvvat, tinchlik, vatanparvarlik, mo‘l hosil va qut-baraka tilash g‘oyasini jo etib kelgan.

Afsona va rivoyatlar bu bayramning qadimiyligidan darak beradi. Emishki, Navro‘z Odam Ato va Momo Havo topishgan, Nuh alayhissalom to‘fondan omon qolgan, afsonaviy shoh Jamshid taxtga chiqqan kun, Beruniyning ta’kidlashicha esa farishtalar yaralgan kundir. Ko‘rinib turibdiki, uning paydo bo‘lishi insoniyat yaralishigacha bo‘lgan davrlarga borib taqaladi.

Umuman, bu bayram qachon paydo bo‘lgani emas, balki o‘zida jo etgan o‘lmas insoniy g‘oyalar, o‘tmishdan to bugungi kungacha o‘zlik qo‘shig‘ini o‘zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir. Har yili yurtimizda Navro‘z bayrami musaffo osmonimiz, inson qadri ulug‘lanadigan, ota-bobolarimiz qoldirgan ma’naviy meros bilan yo‘g‘rilib, keng nishonlanadi. Davlatimiz rahbarining “2024-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida milliy bayramimizni “Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!” bosh g‘oyasi ostida o‘tkazish belgilangani ham buning yaqqol dalilidir.

* * *

Har yili bayramga hududlar miqyosida keng tadorik ko‘riladi. Ayyom arafasi ko‘pchilik tug‘ilgan qishlog‘iga qarab yo‘lga otlanadi. Bu ham o‘ziga yarasha mehr-oqibat nishonasi.

Davomi 2-betda

Bugunning gapi

BIR OYDA IKKI MARTA ISH HAQI, KECHIKTIRILGAN HAR BIR KUN UCHUN KOMPENSATSIYA...

Ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyadagi muhim tamoyillar

Davlatimiz rahbari shu yil 12-mart kuni “Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini imzoladi. Bu mamlakatimizda inson huquqlarini himoyalash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, mehnat munosabatlarini takomillashtirish va mehnatni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomidir.

Mazkur konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi mehnatkashlar manfaatini muhofazalash, har bir xodim mehnati uchun munosib ish haqini o‘z vaqtida olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xalqaro standartlarni samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi raisi Mavluda XO‘JAYEVA bilan suhbatimiz ushbu xalqaro konvensiyaning maqsad-mohiyati, uning ratifikatsiya qilinishi orqali zimmaga olinadigan majburiyatlar va ularni bajarish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar xususida bo‘ldi.

Davomi 3-betda

MULOHAZA

Vatan qolar ekan, VATAN ABADIY

Vatan, vatanparvarlik haqida gap ketar ekan, beixtiyor maktab yillari-yu “Vatan tuyg‘usi” fanidan dars o‘tadigan ozg‘ingina o‘qituvchimizning partalar oralab ohista yurgancha, ushbu satrlarni aytgani yodimga tushadi:

Bahrayn suvlarga chaydim yuzimni,
Nasimlar esdilar iliq, arabiy.
Bir osmon to‘ldirib keldi ko‘ksimni —
Vatan qolar ekan, vatan abadiy.

Biz, endigina hayotning ranglari bilan tanishayotgan bolalar qo‘limizni parta ustiga qo‘yib, deraza ortida oppoq gullagan bodomga tikilgancha she’rni maroq bilan tinglar edik. To‘g‘ri, she’rning mazmunini to‘liq tushunmasdik, biroq undagi birgina Vatan so‘zi o‘zgacha ohangda eshitilar, uning nima ekanini bilishga o‘ch edik. Oradan yillar o‘tib, o‘sha she’rning davomini yana qayta o‘qidim:

Bobo qirlardagi bir xas yo tikan,
Shu ham kimlargadir zo‘r armon ekan.
Ko‘p ekan zar topib, zor bo‘lib yurgan,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.
Olmon tuprog‘ida bir nemis ayol,
Ko‘zda yosh, o‘zbekcha ayladi savol.
Xalqim, non-u tuzing hamisha halol,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Hozir bu go‘zal she’rda nima haqda gap borishiyu qanday tuyg‘ular tarannum etilganini juda yaxshi anglayman. Biroq baribir yana o‘sha davrlarga qaytib, aynan shu rangpargina o‘qituvchining tilidan she’rni qayta tinglamoqqa borimni berishga-da tayyor bo‘laman ba’zan. Bizga Vatan haqida ilk marta o‘ylatgan o‘sha ustozimizga chin ko‘ngildan rahmat aytishni sog‘inaman, nega o‘shanda rahmat aytmaganman, deya o‘zimni koyiyman.

Biz u paytlar o‘yinqaroq edik, darsda zavqlanib o‘tirsak-da, qo‘ng‘iroq chalinishi bilan o‘qituvchidan oldin ko‘chaga otilardik. Ha, bolalik faqat yugurish bilangina o‘tarkan. Tanaffusda maktab stadioniga, dars tugagach esa quvalashib uyga yugurardik. Yagona burchimiz maktabga kelib-ketish, deb bilar, ko‘nglimizda zig‘ircha ham qo‘rquv yoki hadik yo‘q edi. Bir-birimiz bilan tortishib qolmasak, bizga begona biror kishi ziyon yetkazmasdi.

Maktab uyimizdan taxminan to‘rt chaqirim uzoqda joylashgan. Ba’zan sinfdoshlarim bormagan kunlari bir o‘zim ham ketaverardim. Chunki Vatanimiz tinch edi, shu sababli butun dunyoni ana shunday tinch, deb tasavvur qilar edik.

Davomi 5-betda

Hududlar hayoti

SHAMOLNI SEVUVCHI KISHILAR

Beshariq tumani Farg‘ona vodiysining g‘arbiy darvozasi hisoblanadi. Sharqdan nur taratib, bosh ko‘targan quyosh beshariqliklarga ham bitmas kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Qo‘qon shamoli ham Beshariqdan boshlanadi. Shu bois, bu yerliklarni shamolni sevuvchi kishilar, deyishadi. Ulardagi g‘ayrat-shijoat, yaratuvchilik, odamiylik fazilatlari balki shundandir.

Yaqin yillargacha Beshariq tumani e’tibordan chetda qolgan hudud edi. Tabiiyki, tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush tarzini yaxshilash, investitsiya salohiyatini kengaytirish, mavjud xomashyo zaxiralaridan samarali foydalanish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta’minlash ishlari o‘ldajo‘lda bo‘lgan. Tumandagi yagona to‘qimachilik korxonasi faoliyati ham turli bahonalar bilan to‘xtab qolgandi.

Qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston bilan bog‘lovchi infratuzilma tarmoqlari yopib qo‘yilgani bois, Beshariq yopiq hududga aylangandi. Tuman markaziga kelish, undan chiqish uchun ham ma’lum bir chegara postlaridan o‘tish, pasport nazorati tizimlari bilan bog‘liq ovoragarchiliklar yurtdoshlarimizga noqulayliklar yaratardi.

Keyingi yillarda butun mamlakatimiz bo‘ylab quloch yoygan hayotbaxsh islohotlar olis tumanda ham yangi tamaddunlarga eshik ochdi. Ko‘hna go‘shada ulkan obodonchilik va bunyodkorlik ishlari avj olmoqda. Odamlarni ko‘pdan buyon qiynab kelayotgan muammolar barham topmoqda, chegara postlarida yangi tartib-tamoyillar joriy etildi.

Davomi 2-betda

DOLZARB MAVZU

ONA ZAMIN “ISITMASI”

Uning davosi qayda?

Bugun dunyoda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar tobora ko‘paymoqda. Uning oqibatini yuz berayotgan keskin o‘zgarishlardan ko‘ryapmiz, his etyapmiz. Birovlar uni o‘ta xavfli hisoblasa, ba’zilar unchalik ishonmagani bois, qanday oqibatlarga olib kelishini tasavvur ham etgani yo‘q. Vaholanki, iqlim o‘zgarishi birgina mintaqa yoki xalqqa tegishli emas, u butun dunyoni qamrab, global muammoga aylangan. Demak, uning ta’siri, yuzaga keltirayotgan xavf-xatarlari ko‘lami ham ulkan.

“Iqlim o‘zgarishi” atamasi ba’zan “global isish”ga sinonim tarzda qo‘llanilmoqda. Bu tushunchalar o‘xshash bo‘lsa-da, aslida, turli jarayonlarni aks ettiradi.

2015-yil 12-dekabrda BMTning iqlim bo‘yicha Parij bitimi qabul qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha dastlabki konvensiyasi hayotga tatbiq etilishini faollashtirish, xususan, haroratning global o‘sishini Selsiy shkalasi bo‘yicha o‘rtacha 2°C. dan past holatda ushlab turish va harorat ko‘tarilishini 1,5 °C.da cheklash uchun sa’y-harakatlarni ishga solish edi.

Bitimni 190 dan ziyod davlat imzolagan. Uning asosiy jihatlaridan biri — rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham atmosferaga tashlanayotgan chiqindilar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilangan. O‘zbekiston 2017-yil aprelida ushbu hujjatga qo‘shildi.

Davomi 4-betda

“Ingliz olimasi Meri Boysning yozishicha, qadimgi zardushtiylar erta ko‘klamda kelayotgan yilning barakali bo‘lishini niyat qilib, muqaddas o‘simliklardan birini tuyib, shirasini olganlar va suvga oqizganlar. O‘sha qanday o‘simlik ekanligi va uning nomi nimaligi ma’lum emas.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-mart, 53-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

KO‘NGILLARDAN RUTUBAT KETDI

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Kecha ishdan kechroq chiqdim. Yomg‘ir sevalab o‘tgan, shaharning shovqiniga jo bo‘lgancha daraxt ustida qunishib o‘tirgan qushlarning chug‘ur-chug‘uri beixtiyor odamni o‘ziga tortadi. Bir vaqt telefonim jiringladi. Eski qadrdon do‘stim. Gap oralab, qishloqqa ertaga qaytayotganini, bayramga hali vaqt borligiga qaramay, qishloqda sumalak boshlanganini aytdi. Ertaga va indinga dam olish kuni bo‘lgani uchun men ham borishga chog‘landim…

Tong otarda qishloqqa kirib bordik. Tog‘dan esayotgan salqin shabada dimoqni qitiqlaydi. Bahor nafasi kengliklarni allaqachon quchgan. Adirlarda ko‘kning hidi anqiydi. Erta tongdan qo‘ylarini qirga haydab ketayotgan cho‘ponning quraylashi, qo‘zilarning enasini izlab ma’rashlari, keksa daraxtlar boshida xonish qilayotgan musichalar tovushi qopladi olamni.

Odamning tomirlari yumshaydi. Haybat bilan termilib turgan o‘sha viqorli cho‘qqilar ustida qishning so‘nggi elchilari — qor “hali biz bormiz”, deya uqtirayotgandek. Yastanib yotgan kengliklar esa o‘z bag‘riga chorlayveradi…

Qishlog‘imiz Nurota tog‘ tizmasi etagida joylashgan. Bu yerda bahor hamal oyidan boshlanadi. Hamal keldi — amal keldi, deydi qishloq oqsoqollari. Chunki jonli mavjudot borki, harakatga tushadi. Daraxtlaru o‘t-o‘landan tortib, qurt-qumursqagacha. Dehqonlar ish qurollarini tayyorlab qo‘yadi.

Qishloqda bahorning quvonchi bolalardan boshlanadi. Ko‘klam o‘z libosini adirlarga to‘shashi bilan ular “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Chillak”, “Bekinmachoq”, “Cherkash” kabi milliy o‘yinlarimizni boshlab yuboradi. Varrak uchirib yurgan bolalar bir dam o‘yinni to‘xtatadi. Yer bag‘irlab o‘sib chiqqan boychechakni uzib olib, uyi tomon shoshadi. Momosiga olib boradi. Momo tavof qiladi va:

Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan,
Hamma bir-biriga jigarso‘z ekan,
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro‘z ekan,

deya nevarasini bag‘riga bosadi. Yangi kunning quvonchi, bahorning ilk elchisi momolarga quvonch ulashadi. Ular qo‘ni-qo‘shniga xabar soladi: “Bug‘doy ko‘kartirishimiz kerak”. Qo‘ni-qo‘shnilar bug‘doy yig‘a boshlaydi. So‘ng uni ko‘kartirish uchun joy tanlashadi. Sumalak pishirish elning ko‘kka yetganiga shukronalik belgisi. Uning ildizi uzoq tarixga borib taqaladi. Mamatqul Jo‘rayevning “Navro‘z qo‘shiqlari” kitobida bu taomning yaratilishi haqida quyidagicha yozilgan:

“Ingliz olimasi Meri Boysning yozishicha, qadimgi zardushtiylar erta ko‘klamda kelayotgan yilning barakali bo‘lishini niyat qilib, muqaddas o‘simliklardan birini tuyib, shirasini olganlar va suvga oqizganlar. O‘sha qanday o‘simlik ekanligi va uning nomi nimaligi ma’lum emas. Ammo ana shu o‘simlikning shirasini qadimgi hindlar “soma”, “Avesto”ning bitikchilari esa “haoma” deb atashgan bo‘lib, bu so‘z “siqib olingan suv” ma’nosini anglatarkan. Binobarin, tilimizdagi “siqmoq” (ya’ni, “biror narsani ezib, suvini chiqarmoq” ma’nosidagi) so‘zi ham ana shu o‘zakka bog‘lansa, ajab emas”.

Ko‘rinib turibdiki, bu taom necha-necha asrlar davomida tayyorlab kelingan. Yillardirki, qishlog‘imiz aholisi kelishib, yig‘ilishib, birgalikda sumalak tayyorlaydi. Hech bir xonadon o‘zicha sumalakka qozon osmaydi. Sumalak bahona boshqa hududlarga ishlash, o‘qish uchun ketganlar yig‘ilgan. Ya’ni sumalak — birlik ramzi.

Ko‘kargan maysani momolar boshchiligida qozonga solishga tayyorlaydi. Yer o‘choqlar qaziladi. El-ulusdan o‘tin yig‘iladi. Sumalak qozonga solinar ekan, bobolar duoga qo‘l ochadi. El-ulusning tinchligi bilan birga, yog‘in-sochin so‘raydi, yilning yaxshi kelishini so‘raydi. Chorva-yu dehqonchilikka baraka tilaydi. Mol atab ehson qilganlarga farzand tilaydi. Sumalak bir kechayu bir kunduz tinimsiz o‘t yoqib, qo‘zg‘ab turiladi. Tayyor bo‘lgandan keyin butun qishloq ahli bo‘lib oladi. Uzoq-yaqin birodarlarga ulashiladi, bemorlarga yetkaziladi. Shundan so‘ng qishloq ahli Yilboshiga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Bir-ikki kun oldin vaqti belgilanadi. Vaqti yetgan kuni tongda qishloqni Parda cholning bo‘g‘iq ovozi tutadi:

Odamlar, hoy odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar!
Eshitmadim demanglar,
Bugun bayram — Yilboshi,
Sayilga, ho, sayilga.

Bahorning bayrami, yangi kunning nishonasi, ko‘klamning suyunchisi, qorli-qirovli kunlarning ustidan qilingan g‘alaba nashidasi — Yilboshiga Parda chol mas’ul. Uning ovozini eshitgan er yigitlar sayilga tayyorgarlik ko‘rish uchun belgilangan joyga boradi. O‘choq qurishadi, o‘tin yorishadi. Xotin-xalaj tandirxonada kuymalanadi. Boisi, pishir-sidir ularning zimmasida.

Quyosh purviqor tog‘larni quchganda, yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma Yilboshiga otlanadi. Sayilgohda katta dasturxon to‘shaladi. Hamma tayyorlab kelgan taomlarini bo‘lishadi. Qishloq oqsoqoli yangi kun bilan elni qutlaydi. Ehson uchun qilingan osh tarqatiladi. Ko‘k uzra bolalarning quvnoq qiyqiriqlari o‘ralaydi. Xotin-xalaj tarqaganidan so‘ng belida belbog‘i bo‘lgan yigitlar maydon talab bo‘lishadi. Ota-bolalardan qolgan sport turi kurash tushadi.

Oqsoqollar kurash tugagandan so‘ng davra quradi. Qishloqdagi muammolar o‘rtaga tashlanadi. Eng avvalo, chorvaga cho‘pon tayinlashadi. To kech kuzgacha boqish vazifasi yuklatiladi. Cho‘pon esa o‘z nafsini tiyib, xalq esa cho‘ponni uning sharoitidan kelib chiqib saylaydi. Undan so‘ng qishloqning asosiy yo‘llarini kim ta’mirlaydi, ariqlarni kim tozalaydi — kelishiladi. Xullas, bir yillik rejalar bo‘lib olinadi. Kengash fikr — quyma fikr, deydi dono xalqimiz. Yilboshidan ko‘zlangan asosiy maqsad ham kelgusida qilinadigan ishlar rejasini tuzib olishdir. Kim bug‘doy ekadi, kim no‘xat, kim arpa, deganlaridek.

Bayram shukuhi o‘tar-o‘tmas, hamma bel bog‘lab o‘z ishiga kirishadi. Dehqon yerning tobini bilish uchun qo‘sh soladi. Cho‘pon qo‘ylarni keng yaylovga solishga taraddud ko‘radi. Ayollar esa olacha to‘qish uchun yigirgan iplarini qozon boshida turli ranglarga bo‘yay boshlaydi. Keksalar oftobro‘da toblanib, yurtiga va xalqiga tinchlik so‘raydi. Bolalar o‘zlaridan katta orzularini ortmoqlab, maktabga shoshadi...

Bizning ham safarimiz qarib, poytaxt tomon otlanamiz.

Qaytar ekanmiz, yo‘l chetida Sherali polvon otining egar qoshiga arqonini bog‘lab olgan, ortida tuyasini yetaklab kelayotgan ekan. Do‘stim to‘xtay turib, izoh berdi: “Bugun tuman hokimligi tomonidan katta ko‘pkari beriladi, deb eshitgandim. Ovi baroridan kelibdi”.

Polvon bilan hol-ahvol so‘rashamiz.

— Bugun ham jalovimizni birovga bermadik, — deya nari ketar ekan, uning keng yelkalari osha tog‘ etagida yastanib yotgan qishloqqa qarayman. Bu inson hayotini maydonda o‘tkazdi. Butun umr qishloqning orini himoya qildi. Unga jalov emas, or muhim. Qishloqning, yurtning ori muhim.

Toza ko‘zaning suvi toza, deyishadi. Har yili Navro‘z bayrami arafasida milliy o‘yin — ko‘pkari tashkil etiladi. Xususan, Nurotada ham. Hatto qo‘shni Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘izistondan ham ko‘plab chavandozlar keladi. Ular bilan bir maydonda uloq qo‘shish ortida ko‘p hikmat bor. Asrlar davomida yurtning g‘ururini, nomusini shu maydonda himoya qilishadi. Aslida, toza qadriyatlar ortida chin insoniylik, nomusi, g‘ururi, ori boy berilmagan xalq yotadi.

O‘tmishda milliy an’analar devorini buzishga bir necha bor harakatlar bo‘ldi. Mustabid tuzum davrida bu kabi marosimlarga cheklovlar qo‘yildi. Bo‘yin egmaganlar esa yo qamoqqa tashlandi yoki quvg‘in qilindi. Ammo yillar suronidan omon o‘tgan an’analarimizni hech kim, hech bir tuzum, hech bir cheklov o‘zlikdan ayirolmaydi.

Ko‘ngilda yangi kunning shukuhi, yangilanishlar ichida yashayotgan, o‘z erki va ozodligi mustahkam devor bilan o‘ralgan xalq yangi kunning tadorigini yangicha shukuh bilan kutib olishga chog‘lanmoqda.

Biz o‘tirgan mashina radiosida Abdulla Oripovning she’ri yangraydi:

...Yana ko‘ngillardan rutubat ketdi,
Yana shu’lalardan qamashmoqda ko‘z.
Yana dildorlikning fursati yetdi,
Demak, Bahor keldi, kelmoqda Navro‘z...

> **O‘tmishda milliy an’analar devorini buzishga bir necha bor harakatlar bo‘ldi. Mustabid tuzum davrida bu kabi marosimlarga cheklovlar qo‘yildi. Bo‘yin egmaganlar esa yo qamoqqa tashlandi yoki quvg‘in qilindi. Ammo yillar suronidan omon o‘tgan an’analarimizni hech kim, hech bir tuzum, hech bir cheklov o‘zlikdan ayirolmaydi.**

Hududlar hayoti

SHAMOLNI SEVUVCHI KISHILAR

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Natijada beshariqliklar bilan bir ariqdan suv ichib, quda-anda, qarindosh, birodarlik rishtalari bog‘langan Tojikistonning Konibodom, Isfara, Asht tumanlari bilan o‘zaro bordi-keldi, savdo-sotiq ishlari yo‘lga qo‘yildi. Bu tuman iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish, yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini bermoqda. Eng muhimi, bu ishlarning tashabbuskori ham, ijodkori ham oddiy odamlar.

— So‘nggi paytlarda tekstil va to‘qimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mebel, kimyo va neft, farmatsevtika, charm-poyabzal sanoati va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash kabi yo‘nalishlar rivojlanmoqda, — deydi tuman hokimi Rasuljon Jo‘rayev. — Raqamlar tili bilan aytganda, avvalgi yillardan ikki barobar ko‘p, 16 million 600 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. Yangi turdagi sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash, investitsiyalar miqdorini ko‘paytirish hisobiga eksport salmog‘ini 30 million dollardan oshirish, geografiyasini kengaytirish borasida istiqbolli dasturlar ishlab chiqildi.

Beshariqda tayyorlanayotgan sifatli mahsulotlar allaqachon mamlakat miqyosida o‘z nomiga ega bo‘ldi. “Beshariq comfort servis” MCHJ transformatorlari, “Lola Quality Tex” MCHJ trikotaj mahsulotlari, “Miolar Textile” MCHJ kiyim-kechaklari, “Sherwood”ning mebel va tirikotaj mahsulotlari ichki bozordan tashqari xorijda ham o‘z mijozlarini topdi.

“Farg‘ona — Yasin” qo‘shma korxonasi bu borada yetakchilardan. Adirobod kengliklarida dunyo andozasidagi 400-500 markali sement ishlab chiqaradigan gigant korxona qurilishi hech kimning xayoliga kelmagan. Yigirma ikki gektarli maydonda xitoylik investorlar bilan barpo etilgan “Farg‘ona — Yasin” qo‘shma korxonasining loyiha qiymati

200 million AQSH dollariga teng. Sement zavodi qurilishi uchun aynan shu joy tanlangani ham bejiz emas. Hududda mahsulot uchun katta xomashyo zaxirasi bor. Bu imkoniyatlar shu kunga qadar yer ostida qolib kelayotgandi. Bu yerda yiliga 1,2 million tonna yuqori sifatli sement ishlab chiqarilib, bozori ehtiyojini qondirishga katta hissa qo‘shyapti. Mahsulotning 30 foizi eksportga chiqarilmoqda. Yangi tarmoq bir vaqtning o‘zida 700 nafardan ortiq aholi bandligini ta’minladi.

— Ishchilar uchun avtotransport xizmati, bepul tushlik, dam olish bilan bog‘liq sharoitlar yaratilgan, — deydi ishlab chiqarish brigadiri To‘lqinjon To‘ychiyev. — Zavodimiz ekologik toza, 2 million dollar hisobiga chang ushlab qoluvchi zamonaviy qurilmalar o‘rnatilgan. Bu atrof-muhit musaffoligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Korxona 200 megavatt quvvat bera oladigan quyosh elektr stansiyasi qurishga kirishdi. Bu korxona ishlab chiqarish ehtiyojini qoplash bilan birga, ortgani aholiga beriladi.

Tumanda amalga oshirilayotgan islohotlardagi o‘sish sur’atlarining yana biri parrandachilik tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Oddiy uy sharoitida tovuq parvarish qilgan har bir oila bu beminnat ”dastyor”ning xususiyat va imkoniyatlarini yaxshi biladi. Parrandachilik nafaqat oziq-ovqat, balki sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun foydali jihatlari bilan ham ajralib turadi.

Bu yo‘nalishda o‘ndan ortiq tadbirkorlik subyekti ishlab turibdi. Tuman aholisining 242 ming 800 nafari tuxumga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qoplash bilan birga, har yili

1 million dona tuxumni qo‘shni shahar, tuman va yaqin qo‘shni mamlakatlarga yetkazib bermoqda.

“Vodiy naslli parranda” fermer xo‘jaligida Germaniya texnologiyasi asosida tovuq boqilib, tuxum va parhez go‘shti yetishtirilyapti. Mo‘jazgina sexda 82 mingdan ortiq parranda parvarishlanyapti. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sexdagi barcha ish jarayoni avtomatlashtirilgan, muqobil energiya — quyosh panellari yordamida ishlaydi.

— Tarmoq faoliyati uchun muhim bo‘lgan ozuqa bazasini yaratish maqsadida Sirdaryo sohillariga tutash hududda 500 gektar kam hosilli ekin maydonlari ajratib berildi, — deydi fermer xo‘jaligi rahbari Bohirjon Turdaliyev. — Avvallari sotib olingan makkajo‘xori, bug‘doy va boshqa ozuqabop dukkakli ekinlarni endilikda o‘zimiz yetishtiryapmiz. Shu maqsadda yangi texnikalar xarid qildik, ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash va hosildorlikni oshirishga alohida e’tibor beryapmiz.

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Soha rivojiga qaratilgan ish ko‘lami bu bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Istiqbolli loyihalar dasturiga ko‘ra, joriy yilda yana bitta tuxumchilik yo‘nalishida tarmoq foydalanishga topshirilishi hisobiga fermer xo‘jaligidagi parrandalar soni 500 mingtaga yetadi.

Kasanachilikni rivojlantirish oila byudjeti daromadlarini oshirish, uy mehnatidan foydalangan holda ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish orqali xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ham ustuvor ahamiyat qaratilyapti.

Gulchehra To‘xtasinova “Vorux dasht” mahalla fuqarolar yig‘inida yashaydi. Ishsizligi bois, “Temir daftar”ga kiritilgan. Uch nafar farzandi baxt-u kamoli yo‘lida harakat qilyapti, izlanyapti, imkoniyat qidiryapti. Tikuvchilik malakasiga ega. Ammo ro‘zg‘ordan ortib, markazdagi turdosh korxonalarga borib ishlay olmaydi.

“Abdurazzoq ota” mahalla fuqarolar yig‘inida xotin-qizlar bandligini ta’minlash markazi tashabbusi bilan tashkil etilgan tikuvchilik korxonasi Gulchehra kabi o‘ttizga yaqin dugonalarni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi.

— “Ayollar daftari”ga kiritilgan ishsiz xotin-qizlarni kasanachilik asosida ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat mulkidagi bino-inshootlarni ijaraga olishda alohida imtiyoz va imkoniyatlar joriy etilgan, — deydi tuman hokimining o‘rinbosari Gulchehra Yo‘ldosheva. — Shu maqsadda tuman markazidan olisda joylashgan “Rapqon”, “Ma’rifat”, “O‘ttiz ombor”, “Namuna”, “Vatan”, “Bo‘ston”, “Baxmal” mahalla fuqarolar yig‘inlarida bo‘sh turgan binolarda tadbirkorlik subyektlari tashabbusi bilan tikuvchilik korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ularga soliq va boshqa ijtimoiy to‘lovlarda alohida imtiyozlar joriy qilingan. Xususan, ishlab chiqarish binolari mahallalardagi xotin-qizlar faollarining tavsiyasiga, asosan, davlat mulkini ijaraga berish tartibiga muvofiq tikuvchilik, qandolatchilik, fitnes, sheyping, xotin-qizlarni kasbga o‘qitish faoliyatini tashkil etish maqsadida besh yil muddatga beriladi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan va xodimlarning asosiy qismi “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlardan iborat kasanachilikni tashkil etgan va ular bandligini saqlab qolgan tadbirkorlik subyektlari bino-inshootlar uchun ijara haqi to‘lovidan 2027-yil 1-oktabrga qadar ozod etilgan. Bu uyda o‘tirgan xotin-qizlar bandligini ta’minlash, farovonligini oshirishda o‘ziga xos imkoniyatlar bermoqda.

Bo‘ston mahallasida “Drujba” un va un mahsulotlari ishlab chiqarish zavodi qurildi. “Qiyat-Sartol” mahalla fuqarolar yig‘inida “Samira textile” korxonasi tashabbusi bilan oyoq kiyimlari, krossovkalar ustki qismini to‘qiydigan korxona ish boshladi. Bu yerda yiliga 20 ming juft krossovka xomashyosi to‘qiladi.

Sirasini aytganda, yangi uy-joylar, maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari qurish, o‘quvchi yoshlarga kasb-hunar o‘rgatish, aholi tomorqasidan samarali foydalanish, tibbiy xizmat, sanoat, infratuzilma tarmoqlarini yanada yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar avjida. Bularning barchasi ko‘hna hududning yangi tamaddunga yuz ochganidan, aholi hayot tarzi kundan-kunga yaxshilanib, shukronalik, daxldorlik tuyg‘ulari ortib borayotganidan dalolat beradi.

Bugunning gapi

BIR OYDA IKKI MARTA ISH HAQI, KECHIKTIRILGAN HAR BIR KUN UCHUN KOMPENSATSIYA...

Ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyadagi muhim tamoyillar

Boshlanishi 1-betda

— Ish haqini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiyada inson huquqlarini himoyalash bilan bog‘liq qanday muhim tamoyillar o‘z aksini topgan?

— Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi 95-sonli konvensiyasining maqsadi xodimlar ish haqining qonuniy ravishda hamda o‘z vaqtida to‘lanishi, xodimning ishlab topilgan mablag‘larini erkin tasarruf eta olishi, ularga tegishli usulda va oson hamda tushunarli shaklda ish haqini hisoblashga oid shartlar, shuningdek, ish haqining tarkibiy qismlari to‘g‘risida axborot olish kabi huquqlaridan foydalana olishini ta’minlashdir. Konvensiya iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga va barcha toifadagi ishchilarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aytish joizki, oylik ish haqi har bir oila daromadining asosiy manbai bo‘lib, bu jarayondagi uzilishlar hayot sifatiga jiddiy ta’sir etishi tabiiy. Yaqin tariximizda bu borada muayyan muammolarni boshdan kechirganimizni hali unutganimiz yo‘q. Ya’ni ish haqini o‘z vaqtida bermaslik yoki maoshga turli lotereya va markalar qo‘shib berish, plastik kartaga tushgan oylikni naqd pul qilish kabi muammolar xalqimizni ancha bezovta qilardi. Tabiiyki, bu holat oilalar hayot tarziga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmas, natijada aholining davlatga nisbatan e’tirozini keltirib chiqarardi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida bunday muammolarni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, mehnat munosabatlariga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga fuqarolarning mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarini munosib himoya qilishga qaratilgan yangi normalar kiritildi.

Shuningdek, yangilangan Mehnat kodeksida ham xodimlarning mehnatiga haq to‘lash sohasidagi kamsitishni taqiqlash, ish haqini toifalash tartibi va muddatlariga doir talablarni tartibga solish, xodimning ishlab topgan mablag‘ini erkin tasarruf etishini cheklashni taqiqlash, ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash kabi asosiy kafolatlar belgilab qo‘yildi.

Ish haqini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi bu jabhadagi ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu konvensiya qoidalari mehnat va hayot sharoitini yaxshilash, ish bilan ta’minlash sohasidagi imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha xalqaro chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Bu esa a’zo mamlakatlarda munosib ish haqiga ega bo‘lish, to‘la-to‘kis sharoitlarda yashash kabi inson huquqlari ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda mazkur konvensiya Xalqaro mehnat tashkilotiga a’zo 99 davlat, jumladan, MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ozarbayjon, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Mazkur qonun loyihasini tayyorlash jarayonida uni ratifikatsiya qilgan bir qator xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat davlatlar ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilgandan keyin o‘zlarining mavjud qonunchiliklarini konvensiya talablariga moslashtirgan. Bu esa ish haqi o‘z vaqtida to‘lanmasligi kabi holatlar kamayishiga olib kelgan.

Shu o‘rinda, ish haqini o‘z vaqtida va tegishli tartibda to‘lash bo‘yicha yurtimizda mavjud huquqiy me’yorlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari haqida ham to‘xtalib o‘tsak. Milliy qonunchiligimizda ish haqi to‘lovlari jamoa shartnomalarida belgilab qo‘yiladi.

Jamoa shartnomasi ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida mehnatga oid barcha munosabatlarni tartibga soluvchi me’yoriy hujjat sifatida yuridik kuchga ega. Yana bir muhim jihat shuki, ish haqiga oid me’yorlar mamlakatimizning mehnat qonunchiligida o‘z aksini topgan, bu tartib-tamoyillar mazkur xalqaro konvensiya qoidalariga mos keladi. Xususan, yangi tahrirdagi Mehnat kodeksiga bir qator yangi normalar kiritilishi bilan uning ushbu konvensiyaga uyg‘unligi ta’minlandi. Qolaversa, mazkur konvensiya normalari “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsad-mohiyatiga hamohangdir.

— Ish haqini kechiktirib to‘lash holatlari bilan bog‘liq qanday muammolar bor va ularni hal qilish uchun qanday choralar ko‘rish zarur, deb hisoblaysiz?

— To‘g‘ri ta’kidladingiz, garchi zamonaviy huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, ish haqini kechiktirib to‘lash bilan bog‘liq ayrim holatlar hamon uchrab turibdi. Bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ham fuqarolardan murojaatlar kelib tushadi.

Bunday hollarda biz tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda, zarurat bo‘lsa, joyiga chiqqan holda mavjud holatni o‘rganib, qonunchilik doirasida masalani hal etish choralarini ko‘ramiz.

Xodimlar ish haqining belgilangan miqdorda va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash maqsadida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ayrim ish beruvchilar, ayniqsa, xususiy sektorda xodimlar ish haqini o‘z vaqtida bermaslik kabi holatlar oldini olish va xodimlarning mehnat huquqlarini ta’minlash maqsadida vazirlik tizimidagi Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan nazorat va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazib kelinadi. Misol uchun, 2023-yilda 1700 dan ziyod korxona tomonidan 32 milliard so‘mdan ortiq miqdordagi ish haqini o‘z vaqtida bermaslik va belgilangan miqdordan kam berish holatlari aniqlangan. 22 milliard 510 million so‘m davlat mehnat inspektorlarining da’vo arizasi orqali undirilgan bo‘lsa, 8 milliard 263 million so‘mini korxonalar o‘z ixtiyori bilan to‘lab berishiga erishilgan.

Shunisi ahamiyatliki, qonunchiligimizda ish haqini kechiktirish bilan bog‘liq holatlarda xodimga har bir kechiktirilgan kun uchun kompensatsiya to‘lanishi va aybdorlar tegishli tartibda jazolanishi belgilab qo‘yilgan. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ham ish haqini to‘lash muddatlari belgilandi. Unga ko‘ra, xodimlarga ish haqi to‘lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo‘lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo‘lishi mumkin emas.

Xodimlarga oylik ish haqi 16 kundan ko‘p bo‘lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo‘lingan holda (bo‘nakda va qolgan qismi miqdorida) to‘lanadi. Ish haqi to‘lanadigan kun dam olish kuniga yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, ish haqi ushbu kunlar arafasida beriladi. Xodimga tegishli bo‘lgan ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi va miqdori boshqa to‘lovlarni amalga oshirishga hamda ularning navbatiga bog‘liq qilib qo‘yilmasligi kerak.

Ish beruvchi ish haqi to‘lash kechiktirilgani uchun xodim oldida moddiy javobgar bo‘ladi. Ya’ni ish beruvchi ish haqini, ta’til to‘lovlarini, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to‘lovlarni va (yoki) xodimga to‘lanishi lozim bo‘lgan boshqa to‘lovlarni to‘lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to‘lov muddatidan keyingi kundan e’tiboran, to haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o‘z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun Markaziy bankning o‘sha vaqtda amalda bo‘lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pulli kompensatsiya) bilan birga to‘lashi shart. Xodimga to‘lanishi lozim bo‘lgan pulli kompensatsiya miqdori Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o‘n foizi miqdorida belgilanadi. Uning miqdori jamoa shartnomasi, ichki hujjat yoki mehnat shartnomasi bilan oshirilishi mumkin.

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarning mehnat sohasidagi huquq va manfaatlarini munosib himoya qilishga qaratilgan yangi normalar kiritilgan. Jumladan, Bosh qonunimizning 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi belgilangan. Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi fuqarolarning ish haqi ularning mehnatiga loyiq bo‘lishi bilan birga, munosib turmush kechirishini ta’minlash, pirovardida esa aholi turmush darajasini yaxshilash hamda mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

> **“Xodimlarga oylik ish haqi 16 kundan ko‘p bo‘lmagan tanaffus bilan ikki qismga bo‘lingan holda (bo‘nakda va qolgan qismi miqdorida) to‘lanadi.Ish haqi to‘lanadigan kun dam olish kuniga yoki ishlanmaydigan bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, ish haqi ushbu kunlar arafasida beriladi.”**

Shuningdek, yangilangan Mehnat kodeksida ham xodimlarning mehnatiga haq to‘lash sohasidagi kamsitishni taqiqlash, teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to‘lanishini ta’minlash, mehnatga natura shaklida haq to‘lanishini cheklash, ish haqini toifalash tartibi va muddatlariga doir talablarni tartibga solish, xodimning ish haqidan ushlab qolish miqdorini cheklash, xodimning ishlab topilgan mablag‘ni erkin tasarruf etishini cheklashni taqiqlash, xodimlarga ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash kabi asosiy kafolatlar belgilab qo‘yildi.

Qolaversa, konvensiya tamoyillari Fuqarolik kodeksi, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi, “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonunlarda ham o‘z aksini topgan.

Konvensiyada vakolatli hokimiyat organi va ish beruvchi bilan bir qatorda, mehnatkashlar tashkilotlari (kasaba uyushmasi)ning qaror qabul qilishda o‘zaro maslahatlashuvi hamda vakolat va majburiyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ish haqidan chegirib qolishlar, ish haqining har qanday xatlanishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va chegarada amalga oshirilishi mumkinligi ham milliy qonunchiligimizda aksini topgan.

— O‘zbekiston tomonidan konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi orqali qanday mas’uliyatlar zimmaga olinyapti?

— Konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi kelgusida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, Xalqaro mehnat tashkilotining hujjatlarida belgilangan mehnat huquqlarini, jumladan, mehnati uchun munosib ish haqini o‘z vaqtida olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xalqaro standartlarni samarali joriy etishga asos bo‘ladi. Bu xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarda O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ushbu yo‘nalishda qonunchiligimizda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish har birimizning zimmamizga katta mas’uliyat yuklaydi. Jumladan, biz, parlament vakillarining vazifasi ish beruvchilarning yuqoridagi qonunlarga so‘zsiz rioya qilishi uchun deputatlik va parlament nazorati institutlarini kuchaytirishdir. Bu borada tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar, joylardagi mahalliy vakillik organlari bilan hamkorlikda ish olib boryapmiz. Maqsadimiz — inson manfaati yo‘lida qabul qilinayotgan muhim huquqiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan ezgu maqsadlarni to‘la ro‘yobga chiqarish va xalqimiz farovon turmush kechirishi uchun qulay sharoit yaratishdir.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

YAXSHI JAMIYAT YAXSHI INSONLARDAN TASHKIL TOPADI

Bugun bilan kechagi kunni faqatgina hayotning bir tekis bo‘lmagan uzoq yo‘lini bosib o‘tgan yoshi ulug‘lar taqqoslay oladi. Ular to‘plagan katta tajriba esa yoshlarning davlat va jamiyat falsafasini teran anglab yetishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-martdagi “Keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish uchun zamin yaratdi. Mazkur qaror keksa avlod vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ularning hayotini yuqori darajaga ko‘tarish va ijtimoiy faolligini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Qaror asosida hayotga tatbiq etilgan “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyili ham yoshlarni ezgu g‘oyalar asosida tarbiyalashda dunyoda muqobili topilmaydigan samarali platforma vazifasini o‘tamoqda.

Yaxshi jamiyat yaxshi insonlardan tashkil topadi. Uni shakllantirishda esa yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish hal qiluvchi kuchga ega. Sababi, ertangi kunimiz egalari, kelajak vorislari ular.

Prezidentimizning yuqoridagi qarori e’lon qilinganiga ham bir yil bo‘ldi. Bu borada qanday ishlar amalga oshirildi, natijalardan ko‘nglimiz to‘qmi?

Buni birgina Samarqand viloyati misolida ko‘rsak. O‘tgan yili bu yerda tajribali, xalq orasida obro‘-e’tiborga ega 1300 dan ortiq nuroniyga qariyb 13 mingga yaqin muammoli yosh biriktirilgan edi.

Natijada yoshlarning besh yarim mingdan ortig‘i ishga joylashtirildi. Mingdan ortig‘i kasbga yo‘naltirildi va yana shunchasi profilaktik ro‘yxatdan chiqarildi. Bir so‘z bilan aytganda, 10 mingdan ortig‘i muammoli yoshlar toifasidan chiqdi.

Bu yil esa 1600 dan ortiq nuroniyga 15 mingga yaqin ana shunday yoshlar biriktirildi.

— “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyiliga muvofiq, yoshlar har bir mahalladagi hayotiy tajribaga ega, zamonaviy fikrlaydigan, faol nuroniylarga biriktirildi, — deydi Tayloq tumanidagi “Buvijonlar maktabi” rahbari O‘g‘iloy Yo‘ldosheva. — Endi mahalla raisi va uning o‘rinbosarlari, “Keksalar maslahati” guruhlari va “Buvijonlar maktabi” kengashlari a’zolari mazkur tamoyil asosida tarbiyasi og‘ir, ma’naviy ko‘makka muhtoj, uyushmagan, ishsiz yoshlarga biriktiriladi va natijada yoshlarga oid mavjud muammolar bevosita mahallaning o‘zida bartaraf etiladi.

Tayloqlik Shahzod To‘raqulov endigina 21 yoshni qarshilagan, moddiy va ma’naviy ko‘makka muhtoj edi. O‘tgan yili unga talaba bo‘lish baxti nasib qildi. Lekin shartnoma pulini to‘lashning imkoni yo‘q. Otaning duradgorlik hunari orqasidan kun o‘tkazayotgan oila uchun bu xarajat og‘irlik qildi.

Mahalladagi har tomonlama ko‘makka muhtoj ana shunday yigit-qizlardan o‘n nafari Muslima Ismoilovaga biriktirildi. Shu kundan boshlab yoshlar nazoratga olindi, ular bilan suhbatlashildi, yordam berish yo‘llari izlandi. Ulardan birining universitetga kirgani-yu shartnoma pulini to‘lolmay, o‘qish fikridan voz kechayotgani Muslima opani tashvishga soldi. U mahalla faollari bilan yosh yigitni qo‘llab-quvvatlashga kelishib oldi. Nihoyat, talabaning shartnoma puli homiylar ko‘magida to‘landi. Shahzod o‘qiydigan bo‘ldi. Muhimi, u tashlab qo‘yilmaydi, keyingi yillardagi shartnoma puli ham to‘lab borilishi belgilandi.

— Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini yuksaltirish, islohotlarga daxldorligini oshirishda o‘rta va katta avlod vakillari namuna bo‘lishi bugungi davr talabi, — deydi mehnat faxriysi Muslima Ismoilova. — Eng muhimi, bu nuroniylarimizga ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, tajribalarini foydali ishlarga yo‘naltirish va odamlar uchun kerakli ekanini his etish imkonini beradi. Qolaversa, yoshlar urf-odatlarimizni e’zozlash, qadr-qimmatimizni asrab-avaylashni o‘rganishi bugungi globallashuv davrida biz uchun o‘ta muhim. Bu yigit-qizlarni farzandlarim, nabiralarim qatorida ko‘raman. Bizga biriktirilgan yoshlarning barchasi muammoli. Kimdir huquqiy maslahatga muhtoj, yana birining bandligini ta’minlash kerak va hokazo. Shuning uchun ular bilan ishlash kishidan katta hayotiy tajriba va mas’uliyat talab etadi.

Nuroniylarga biriktirilgan yoshlar hayotida o‘zgarishlar kuzatilyapti, muammosi hal etilib, hayoti izga tushyapti. Bu tashabbusning naqadar hayotiy zarurat ekani bugun o‘z isbotini topdi.

— Hozir talabaman, yoshligimdan duradgorlik bilan shug‘ullanib kelaman, — deydi Shahzod To‘raqulov. — Muslima buvijonimiz orqali o‘qishimni davom ettiryapman, maktabga ishga kirdim. Uning maslahati va ko‘magi bilan bolalarga hunarmandlik kasbini o‘rgatyapman. Hozir o‘quvchilarim 10 dan ortiq turdagi hunarmandlik mahsulotlarini yasash sir-asrorlarini o‘rganib oldi.

Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda boshlangan bu xayrli tashabbus yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida, bilimli, salohiyatli, kasb-hunarli qilib tarbiyalash, joylardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash borasidagi ishlarni yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Lutfulla SUVONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Asr muammosi yetib bormagan hududning o‘zi qolmadi. Mutaxassislar Arktikaning Yer yuzida salqinlikni saqlab turishdagi muhim rolini allaqachon tadqiqotlarida qayd etgan. Afsuski, o‘rganishlar bu qit’a boshqa mintaqalarga qaraganda ikki barobar tez isib ketayotganini tasdiqlamoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-mart, 53-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Dolzarb mavzu

ONA ZAMIN “ISITMASI”

Uning davosi qayda?

Rustam BOYTO‘RA,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

2019-yil 4-oktyabrda Prezidentning “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Unda suv va qishloq xo‘jaligi sektorlarida iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar belgilangan.

Keling, dastlab mavzu muqaddimasiga qaytsak. Xo‘sh, global isish qachon boshlangan?

BMT mutaxassislari fikriga ko‘ra, iqlim o‘zgarishlari jarayonlari ilgari ham bo‘lgan. Biroq odamlar qazilma yonilg‘ilaridan faol foydalanishni boshlagach (taxminan 1800-yillardan), global isish sezilarli darajada kuchaya bordi. Gap shundaki, ko‘mir, neft va gaz kabilarni haddan ziyod ko‘p yoqish atmosferaga juda katta miqdorda chiqindi gaz ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Hozir sayyoramiz atmosferasiga chiqarilayotgan butun issiqxona tashlanma gazining jami 75 foizi va karbonat angidridning deyarli 90 foizi qazilma yonilg‘ilardan foydalanish oqibatida paydo bo‘lyapti.

Bu tashlanmalar havoni ifloslantiribgina qolmay, sayyoramizni qoplab, quyoshdan kelayotgan va yerdan ko‘tarilayotgan issiqlikni uzoq muddat atmosferada tutib, shu tariqa go‘yo sun’iy issiqxona hosil qilyapti. Havoning bu tarzda isib ketishi tabiatdagi muvozanat buzilishiga olib keldi. Soddaroq aytganda, yil fasllariga xos harorat me’yorlari sezilarli darajada o‘zgarib ketdi. Bular insoniyat, umuman, tiriklik olami uchun ko‘plab xavf tug‘diradi.

Iqlim o‘zgarishi sababi birgina qazilma yonilg‘ilaridan jadal va ko‘p foydalanishdan iborat emas. Elektr energiyasi ishlab chiqarish, sanoat va kundalik iste’mol mahsulotlari tayyorlash, millionlab gektar o‘rmonlarni kesish, har kuni son-sanoqsiz yer usti va havo transporti vositalaridan foydalanish jarayonlarida ham juda katta miqdorda gaz chiqindilari chiqariladi.

Harorat ko‘tarilishi vaqt o‘tgan sari qor-yomg‘ir, tuman, shamol, bo‘ron, momaqaldiroq kabi tabiat hodisalari balansini ham buzib yuborgan. Qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi pasayib, suv toshqinlari, yuqumli kasalliklar ko‘payishi, yaylovlar maydoni va chorva mollari soni qisqarib ketishi, flora va fauna turlari yo‘qolib borayotganini global isishning oqibatlari qatorida sanab o‘tish joiz.

Issiqxona gazlari konsentratsiyasi oshishi bilan butun zaminimizda yillik havo harorati o‘rtacha ko‘p yillik iqlimiy me’yordan 1,2 daraja yuqoriladi.

So‘nggi o‘n yillik butun dunyo tarixida eng issiq bo‘ldi, deya tasdiqlamoqda tadqiqotchilar. Quruqlikning barcha hududlarida issiq va kuchli jazirama kunlar kuzatildi, shu bilan bog‘liq kasalliklar ko‘payishiga olib kelmoqda. Havo harorati keskin oshgan mintaqalarda yong‘inlar oson hamda ko‘p yuzaga kelayotir.

Asr muammosi yetib bormagan hududning o‘zi qolmadi. Mutaxassislar Arktikaning Yer yuzida salqinlikni saqlab turishdagi muhim rolini allaqachon tadqiqotlarida qayd etgan. Afsuski, o‘rganishlar bu qit’a boshqa mintaqalarga qaraganda ikki barobar tez isib ketayotganini tasdiqlamoqda. Biz abadiy deb baholagan muz qatlamlari “mangulik” maqomini yo‘qotib borayotir. Hatto bir necha yuz metr qalinlikdagi muz qatlamlari erib, okeanlar suvi ko‘tarilishiga olib kelayotgani ham haqiqat.

Global isish jarayonida Arktika muzliklaridan tashqari okeanlar ham issiqlikning katta qismini, atmosferadan karbonat angidrid gazini yutib oladi. Oxirgi yigirma yilda okean suvi ham gorizontal, ham vertikal ravishda isib ketgani aniqlangan. Bu esa okean suvi ko‘payib, qirg‘oq bo‘ylarida va orollarda yashayotgan odamlar hayotini (dunyo aholisining 40 foizi) xavf ostiga qo‘yadi. Issiqlikni qaytarishda o‘ziga xos qalqon bo‘lgan muz qatlamlarining erib ketayotgani esa bir-biriga bog‘liq qator muammolarni keltirib chiqaryapti.

Iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi ekinlari va chorva mollari kamayib ketishi yoki mahsuldorligi pasayishiga olib kelayotgani xalqaro tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda. Okean suvi sho‘rlanishi ortib borishi natijasida dengiz resurslari ham xavf ostida qolgan.

Iqlim o‘zgarishi, avvalo, odamlar salomatligi uchun eng katta xavf. Jumladan, havoning ifloslanishi, kasalliklar tarqalishi, ekstremal tabiat hodisalari tez-tez yuzaga kelishi, muayyan hududda yashash o‘ta qiyinlashgani sababli boshqa hududga ko‘chishga majbur bo‘lish, psixikaga bosim tushishi, oziq-ovqat ekinlarini o‘stirish imkoni bo‘lmagan yoki yetarli miqdorda oziq-ovqat bilan ta’minlay olmagan joylarda ochlik va to‘yib ovqat yeya olmaslik muammolari kelib chiqayotgani manbalarda qayd etilyapti.

Ekologik muammolar tufayli yiliga 13 million odam hayotdan ko‘z yummoqda. Ko‘tarilgan muammo — iqlim o‘zgarishi va ekstremal tabiat hodisalari bilan bog‘liq o‘lim soni ko‘payib, sog‘liqni saqlash tizimi ishi murakkablashib borayotir. Zanjirdek bog‘lanib ketgan bu jarayonlar tafsilotini uzoq davom ettirish mumkin.

QANDAY CHORALAR KO‘RILYAPTI?

Yurtimizda iqlim o‘zgarishga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xususida so‘z yuritishdan oldin mavzuga Markaziy Osiyo mintaqasi nuqtayi nazaridan ko‘z tashlash maqsadga muvofiq. Chunki mavzuning mazmun-mohiyati, ko‘lami shuni talab qiladi.

Mintaqadagi mamlakatlar geografik jihatdan yonma-yon joylashgani sababli umumiy suv resurslari va undan oqilona foydalanish, ularni hamkorlikda boshqarish kabi jihatlar ham bor. Qolaversa, O‘zbekiston bilan birga mintaqadagi boshqa davlatlar ham iqlim o‘zgarishiga bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish va tegishli chora-tadbirlarni qabul qilish maqsadida Parij bitimini ratifikatsiya qilgan.

Ekspertlar prognoziga ko‘ra, mavjud voqelik o‘zgarmasa hamda Parij bitimiga a’zolar tomonidan o‘z vaqtida tegishli choralar ko‘rilmasa, 2100-yilga kelib, Yer yuzidagi global isish o‘rtacha 3,2 °C.ni tashkil qiladi. Bu Yer sharining katta qismida ekotizim izdan chiqishini anglatadi.

Yer yuzidagi global isishni 1,5°C.da ushlab turish atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarni 2030-yilgacha 43 foiz va 2050-yilgacha 84 foiz kamaytirishni ko‘zda tutadi. Faqat ushbu maqsadga erishishgina sayyoramizni “sog‘lom” holda saqlab qolishga imkon yaratadi. Iqlim o‘zgarishi dunyo mamlakatlaridan yaqin hamkorlikni talab qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda ilgari surilayotgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti 2022-yil 16-sentabr kuni Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida tashkilot doirasida Iqlim masalalari bo‘yicha kengash tuzishni taklif qildi.

“YASHIL MAKON” — BIR YILLIK TADBIR EMAS

Mamlakatimizda iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashish maqsadida amaliy sa’y-harakatlar boshlangan. Jumladan, maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foiz oshirish, shaharlarda “yashil hudud”larni 30 foiz ko‘paytirish, 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqarilishini 30 foiz kamaytirish, sug‘orish uchun suv tejovchi texnologiyalar qo‘llaniladigan maydonlarni 1 million gektarga yetkazish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

2023-yil 23-noyabrda Prezidentning “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi. Unda O‘zbekistonda “Yashil makon” umummilliy loyihasini yanada ommalashtirish, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida qator muhim vazifalar belgilab berildi. Strategiyaning asosiy g‘oyalaridan biri ham aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratishdan iborat.

Iqlim o‘zgarishi chegara bilmaydi. Afsuski, Orol dengizining qurishi O‘zbekistonda ekologik oqibatlarni yanada chuqurlashtirdi. Mavsumiy qurg‘oqchilik, suv tanqisligi tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu salbiy ta’sir oqibatlarini yumshatish, ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash, yashil maydonlarni kengaytirish borasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilayotgani muhim qadam bo‘ldi.

“Yashil makon” va “Dolzarb 40 kunlik” tadbirlari doirasida bahor va kuz mavsumlarida barcha hududlarda daraxt va buta ko‘chatlari ekib kelinmoqda. Jarayonda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani ham ko‘zga tashlandi. Mutasaddilar oldiga ishni tizimli olib borish, soxta raqamlardan holi real natijalarga erishish vazifasi yuklanmoqda. Shularni inobatga olgan holda, hududlar kesimida “Yashil yillik” umummilliy tadbiri doirasida ko‘chat ekish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilgan.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bir yillik tadbir emas”. Mazkur loyiha doirasida “yashil belbog‘”, “yashil bog‘”, “yashil jamoat parklari”, “yashil qalqon”, “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini hamda ihota daraxtzorlar barpo etish bo‘yicha ulkan rejalar amalga oshirilmoqda. Bu sa’y-harakatlar natijasi bir-ikki mavsumda ko‘zga tashlanmaydi, albatta. Aytaylik, tom ma’noda mikroiqlim yarata oladigan park, xiyobonda daraxtlar kamida 25-30 yillik bo‘lishi kerak. Shu ma’noda, 30-40 yillik daraxt ko‘z ochib-yumguncha fursatda kesib tashlansa va uning o‘rniga ekilgan ko‘chat shu darajaga yetish uchun qancha mehnat va vaqt ketishini tasavvur qilish qiyin emas. Shunda ham o‘sha ko‘chatlar qaddini tiklab olguncha parvarishlansa, himoya qilinsa, albatta.

Maqola avvalida global iqlim o‘zgarishining asosiy sabablaridan biri inson faoliyati ekanini aytib o‘tgan edik. Bugun “Atomni ijod etib, Dahshat balo bunyod etib, Oqibatni yod etib, Hayron o‘zing, hayron o‘zing”, deya ta’riflangan inson faoliyati endi har qanday talab-ehtiyojlarni qondirishda kelajakni o‘ylab ish tutishga majbur etmoqda. Chunki mashhur nisbiylik nazariyasiga ko‘ra, fazo va materiyaga vaqtning aloqasi yo‘q. Ya’ni butun dunyo uchun kelajak ham aslida, bugunning manzarasidan boshlanib bo‘ldi. Tabiatni asrash, daraxt ekish, suvni tejash endi birgina ezgu va savob ish, an’ana va qadriyatgina emas. U insoniyatning kelajagini, hatto bugunini ham asrab qolishning muhim shartiga aylangan.

Yangicha yondashuvlar

60 sotix issiqxonadan 20 TONNA MAHSULOT

daromad ham shunga yarasha

Keyingi yillarda yurtimizda o‘z tajribasiga ega limonchilik maktabi shakllandi. Bugungi kunda mazkur tarmoqni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ko‘plab istiqbolli loyihalar yo‘lga qo‘yilib, hududlarda kompleks ravishda limonzorlar barpo etilyapti. Mazkur sitrus mevani yetishtirish, energiyatejamkor zamonaviy issiqxonalar barpo etish borasidagi ishlar tizimli tashkil etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 19-fevraldagi “Limonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori esa tarmoqni huquqiy va moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda muhim asos bo‘ldi.

Xalqimiz tadbirkorlik, har ishning uddasidan chiqadigan iqtidorga ega. Tabiat o‘zgarishlariga tezkor yechim topish va qiyin vaziyatlardan maqbul yo‘l bilan chiqish hadisini olgan. Faqat ularga ozgina qo‘llab-quvvatlov va rag‘bat bo‘lsa bas.

Bu islohotlardan asosiy maqsad odamlar daromadini, bozorlarimiz, dasturxonimiz to‘kinligini oshirishdir. Toki ishlaganlar mehnatining rohatini ko‘rsin, xalqimiz boy bo‘lsin.

Toshkent viloyatining 200 mingga yaqin aholi yashaydigan Yangiyo‘l tumani Markaz mahallasidagi dehqon xo‘jaliklarida sitrus mevalar yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Ne’matjon Bobojonov limonchilik bilan shug‘ullanadi. 60 sotixli issiqxonasida limonning “Meyr” navi ekilgan. Uning aytishicha, yiliga 18 tonna hosil yetishtiradi. Mahsulotlar kelishuv asosida qayta ishlovchi korxonalarga topshiriladi. Hozir xo‘jalikda oilaning 6 a’zosi bandligi ta’minlangan.

— Tomorqadan foydalanishni bilsangiz, daromadingiz ham oshib boraveradi, — deydi N.Bobojonov. — Oxirgi yillar chorvachilikni ham rivojlantirdik. Hozir go‘sht uchun 130 bosh qoramol va 250 bosh qo‘y boqyapmiz.

Ne’matjon aka tumanda sitrus meva yetishtirishni tajriba tariqasida boshlaganiga 15-yildan oshdi. Yurtimizning janubiy hududlariga nisbatan salqin hisoblangan Toshkent viloyati yerlarida issiqxona tashkil etib, yuqori hosil olishning o‘zi bo‘lmaydi, albatta. O‘z mablag‘i hisobidan 60 sotix issiqxona qurgan oilaning limon ko‘chatlari bugun to‘liq hosilga kirdi. Pishib yetilgan mahsulot peshma-pesh bozorlarga chiqarilmoqda.

— Ishni 10 sotix issiqxona qurish bilan boshlaganman, — deydi N.Bobojonov. — Qarasam hosil ham, daromad ham yaxshi bo‘ldi. Shundan keyin issiqxonani 20 sotix qilib kengaytirdik va orasiga mandarin ko‘chatlarini o‘tqazdik. Ko‘chatlar to‘rt yillik bo‘lgandan keyin issiqxonani 60 sotixga yetkazdik. Hozir yanada kengaytirishni niyat qilib turibmiz. Bir tupdan 50-60 kilogacha hosil olyapmiz. Shuningdek, qator oralariga sabzavot ham ekkanmiz. Issiqxonamiz ko‘mir bilan isitiladi. Tomchilatib sug‘orish tizimi o‘rnatilgan. Hozir mevalarimiz bozorga chiqishga tayyor.

Izlagan imkon, izlamagan bahona topadi, degan naql bor. Harakat qilgan odam baraka topyapti. N.Bobojonov sitrus mevalar yetishtirishda o‘ziga xos yangilik yaratdi. Limon va mandarin ko‘chatlarini bir qatorga joyladi. Bugun issiqxonadagi ko‘chatlarning uchdan biri mandarin. Tadbirkorning ta’kidlashicha, bunday joylashtirish hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki limon va mandarin daraxtlari yonma-yon ekilsa, changlatish jarayoni yaxshilanadi. Ushbu tajriba tufayli hosildorlik 20 foiz oshdi. Hisob-kitoblarga qaraganda, bu yil dehqon xo‘jaligi 60 sotix issiqxonadan 20 tonna hosil ko‘taradi. Ya’ni 17 tonna limon, 3 tonna mandarin terib olinishi chamalangan.

BIR MAHALLA — BIR MAHSULOT

Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida 204,8 ming aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta’minlangan. Xususan, Yangiyo‘l tumanida arzon, sifatli meva-sabzavot yetishtirish va ichki bozorni ta’minlash borasida tomorqa xo‘jaliklarining o‘ziga xos tajribasi bor.

Birgina o‘tgan yilda hududda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 116 xonadonga 3,13 milliard so‘mlik issiqxona, 301 ta oilaga 5 milliard so‘mdan ziyod qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob-uskunalari berildi. Bu imkoniyatdan unumli foydalanayotganlar ko‘p. E’tiborlisi, tomorqachilikda eng namunali ishlarni amalga oshirayotgan, barchaga o‘rnak bo‘layotgan oilalar tajribasi ommalashtirilmoqda.

Bunda “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Hududdagi Niyozboshi mahallasida yashovchi Malohat Ro‘ziboyeva viloyatdagi eng ilg‘or ayollar safida. U o‘ttiz yildan buyon 9 sotixli issiqxonasida ko‘kpiyoz yetishtirish bilan shug‘ullanadi.

— Mahallamiz sabzavot, xususan, piyoz yetishtirishga ixtisoslashgan, — deydi Malohat opa. — Buning ham o‘ziga yarasha qiyinchiligi bor. Yiliga 80 million so‘mdan ziyod daromad olamiz. Yetishtirilgan mahsulot ichki bozordan tashqari qo‘shni davlatlarga ham yuboriladi. Buning uchun mavsumda 25 ayolni ish bilan band qilganmiz. Shu kunlarda ham issiqxonamizda ish qizg‘in. Ayni hosil yetilgan palla.

Qirsadoq mahallasi ahli ham viloyat dehqon bozorlari va poytaxt savdo do‘konlariga sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib beradi.

— Tomorqamizdagi 8 sotix yerda 10 turga yaqin sabzavot va ko‘kat ko‘chatlari yetishtiramiz, — deydi qirsadoqlik Zulfiqor Karimov. — Bu ish bilan 20-yildan buyon shug‘ullanaman. Bulg‘ori qalampiri, bodring, sarimsoqpiyoz ham ekamiz. Sabzavot ko‘chatlarini esa hududimizdan tashqari boshqa tumanlardagi dehqonlarning talablari bo‘yicha ham yetkazib beramiz. Yil davomida 30-40 million so‘mgacha daromad olish imkoniyatimiz bor.

Tumanda bu kabi sabzavot mahsulotlarini yetishtiruvchilar “Tomorqa xizmati” MCHJlar hamda yirik eksportyor korxonalarga biriktirilgan. Yangiyo‘l tumani hokimligi tomonidan mahallalar o‘sish nuqtalari va rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda.

“HAR BIR OILA — TADBIRKOR” DASTURI SAMARASI

Darxon mahallasida 399 xonadon bor, ularning barchasi tomorqa yer maydonlariga ega. Aholi daromadini oshirish maqsadida “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida 50 xonadonda tuvakda xona gullari yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Ularga hokim yordamchilarining tavsiyasi asosida imtiyozli kreditlar ajratildi va issiqxonalar qurib berildi. Mazkur loyiha uchun Toshkent viloyati byudjetidan 1,5 milliard so‘m sarflandi.

Ayni paytda mahallada jami 218 ta issiqxona bor, shundan gulchilik sohasi bilan shug‘ullanayotganlar soni 158 tani tashkil etmoqda.

— “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida mahallada zamonaviy issiqxonalar qurish yo‘li bilan aholi bandligi ta’minlandi, qolaversa, ichki bozorga talab yuqori mahsulotlarni yetishtirib beryapmiz, — deydi Darxon mahallasidagi hokim yordamchisi Hasanxo‘ja Rashidov. — Issiqxona qurib berilgan oilalarni soliq organlaridan tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazdik. Endi ularga ish staji yozilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, pensiyaga chiqish, soliq imtiyozlaridan foydalanishda qo‘l keladi. Yana bir muhim jihat: oilalarning yaxshi daromad olayotganini ko‘rgan aksariyat mahalladoshlarning ham bu sohaga qiziqishi oshmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, sohadagi keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayoti, dunyoqarashi hamda turmush tarzini o‘zgartirmoqda.

Lutfulla XAYRULLAYEV,
jurnalist

MULOHAZA

Vatan qolar ekan, VATAN ABADIY

Boshlanishi 1-betda

Maktabdagi tarbiya soatlarida terrorizm-u boshqa ofatlar haqida ko‘p va xo‘p gapirilgani bilan ular asl hayotda qanday bo‘lishini hech qachon ko‘z oldimizga keltira olmaganmiz. Boshqa davlatlarda o‘quvchilar maktabga qo‘riqchilar himoyasida borib-kelishini eshitib, kulgimiz qistagani ham bor gap. Axir biz qo‘riqchi bilan kelish tugul, maktab yo‘lidagi bog‘dan hali xom olma o‘g‘irlab chiqqanimizda ham keksa bog‘bon boboning hassa bilan o‘dag‘aylagancha quvlab qolishidan boshqa xavf ko‘rmas edik. Shu bois, bog‘dan pishmagan olmalarni har kuni qayta-qayta o‘g‘irlab chiqaverardik.

Bizdan katta bolalar — akalarimizning armiyaga nega borishiga esa umuman, aqlimiz yetmas edi. Nega armiyaga boradi? Kim bilan urishadi? Hammayoq tinch-ku! Tinch

Жонибек АЛИЖОНОВ,
“Янги Ўзбекистон” мухбири

davlatga armiyaning nima keragi bor ekan, derdik. Biroq dunyoning katta qismi tugul, atrofimizdagi mamlakatlar ham allaqachon xavf-xatar o‘chog‘iga aylanib bo‘lganini yoshimiz ulg‘aygach, tushunib yetdik. Mana shu ofat o‘choqlari bilan yonma-yon yashab, biz, bolalarni urush nimaligini bildirmay ulg‘aytirgan davlatning fuqarosi ekanimizdan faxrlandim. Bir safar urushlar haqida o‘ta ayanchli xabarlarni o‘qiyotib, pasportimni ochgancha ko‘zimdan yosh chiqib ketgani esimda.

Bugungi dunyo — yashirin xavf-xatarlar uyasi. Kimning kimligini bilish amri mahol, sababi barcha xalqaro harakatlar oshkoradan pinhonga ko‘chgan. Dunyo xuddi, “Kelinlar qo‘zg‘aloni” filmidagi hovliga o‘xshaydi. Azaliy odatlarga ko‘ra, bir stol atrofida samimiy suhbatlar bilan taomlanishadi-yu, o‘z hujrasiga qaytgandan keyin hamma o‘z bilganicha — g‘iybat, yashirin tarafkashlik hamda manfaatlar kurashi. Farmonbibi rolidagi dunyoning asosiy murosasozi — Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham bulardan go‘yo bexabar, chora ko‘rmoqqa ojizdek. Kimga ishonishni esa bilmaysan. Yagona chora — o‘zingga ishonish. Tafakkurda darhol shu savol yarq etadi — biz o‘zimizga ishonamizmi? Mamlakatning asosiy iroda kuchi uning xalqidir. Xalqni xalq holida saqlab turuvchi bosh mezon esa — birdamlik.

Mingyilliklar qa’rida shakllangan xalqimiz uchun birdamlik hissi bugun har qachongidan dolzarb. Aynan ichki birdamlikni mustahkamlamas ekanmiz, tashqi xavflarga qarshi immunitet ko‘rsatkichlarimiz so‘roq holicha qolaveradi. Nimalarga qodir ekanimizga ham aniq tashxis qo‘ya olmaymiz. Lekin birdamlikni qanday aniqlasa bo‘ladi? Oyog‘ing ostidagini osmondan izlama deganlaridek, birdamlik deganda bir necha yildan buyon yashab kelayotganim — poytaxtning Yashnobod tumanidagi Mashinasozlar mahallasining odamlari ko‘z oldimga keladi, uning oz aholisi orqali butun xalqimizni tahlil qilmoqqa chog‘lanaman.

Barchamiz uchun Vatan ostonamizdan, mahallamizdan boshlanadi. Hammamizning o‘z mahallamiz bor. Biz shu mahallada yashaymiz, shu mahalla odamlarining yaxshi-yomon kunidan baholi qudrat xabardor bo‘lamiz. Mahalla bir qarashda oddiy tuzilma kabi ko‘rinsa-da, haqiqiy ma’nodagi kichkina Vatan. Og‘rib qolsak, mahallamizdagi uy shifokorini yo‘qlab, eng avval undan maslahat so‘raymiz. Uyimizda nimadir ta’mirtalab bo‘lsa ham mahalladosh chilangarga qo‘ng‘iroq qilamiz. Ba’zan nimadir so‘rab, qo‘shnimiznikiga chiqamiz. To‘y-ma’rakalarimiz ularsiz o‘tmaydi. Ijobiy o‘zgarishlarning ham natijasini dastavval o‘z mahallamizda his qilamiz. Mashinasozlar mahallasining ham ichki yo‘llari to‘liq asfaltlanganda qishda loyning azobini totgan oyoqlarimizni eslab, qancha quvongan edik.

Shuningdek, mahallamizning hasratinida o‘z hasratimizdek qabul qilamiz. Bir safar yolg‘iz yashaydigan onaxonning uyida baxtsiz hodisa sabab yong‘in sodir bo‘lganda biz ham o‘zimizni uyi yongan odamdek his qilgan edik, o‘z onamizdek jonimiz achigandi — qo‘ldan kelgancha mahalladoshlar yordamini ayamagan.

Yana bir voqea, chamasi ikki yilcha oldin mahallaga bir “tadbirkor” ko‘chib keldi. Hali mahallada uzoq muddat yashamay, odamlarni to‘la tanib ulgurmay, mahalla ichidagi ko‘p qavatli uylarning shundoqqina yoniga ko‘chma do‘kon qurishga kirishib ketdi. Poytaxtda bugungi kunda bir kaft yerning bahosi tilloga teng, mahalla ichida esa sotiladigan yerning o‘zi yo‘q. Uning yagona chorasi shu yerda doimiy yashovchi aholining roziligini olish va

biror ko‘p qavatli uy atrofiga ko‘chma do‘konini o‘rnatib olish edi. Lekin bunga odamlar rozi bo‘larmikan? Derazasining ostida kecha-yu kunduz shovqin bo‘lishiga kim ko‘narkan? Bu shundoq ham qonunan mumkin bo‘lmagan ishligi ravshan-ku! Menga voqealar rivoji qiziq tuyuldi.

“Tadbirkor” ishni eng avval uyma-uy yurib, har xil va’dalar berib, aholining rozilik imzosini yig‘ishdan boshladi. Ishonasizmi, qanday va’dalar bilan ko‘ndirganidan bexabarman, “tadbirkor” mingga yaqin rozilik imzosi yig‘a oldi. Ya’ni shuncha odam shundoqqina derazasining ostida kecha-yu kunduz ishlaydigan do‘kon qurilishiga rozilik berdi. Lekin bir necha jonkuyar nuroniyning jiddiy qarshiligi bilan u baribir mahalla ichida ko‘chma konstruksiyali do‘konini joylashtira olmadi va boshqa joyga ko‘chirib ketdi. Meni qiziqtirgani esa bunga qarshi bo‘lganlarning orasida birorta ham yosh yo‘q edi.

Nahotki, yangi avloddagi xayrixohlik hissi keksa avlodga nisbatan ko‘tarilish o‘rniga susayib ketgan bo‘lsa? Balki mening o‘z mahallam misolida umumiy xulosa chiqarishim xatodir, shuning uchun siz-da o‘z mahalla yoki qishlog‘ingizda shu mezonlar asosida tahlil o‘tkazishingizni hamda xulosalarni taqqoslab ko‘rishingizni iltimos qilgan bo‘lardim.

Men esa xonadonining tinchligiga befarq bo‘lgan yoshlarning Vatan tinchligiga xayrixoh bo‘lishiga so‘roq nazari bilan qarayman. Sababi, azaldan ota-bobolar Vatanni ovulu mahalladan boshlanadi, deb hisoblagan. Biz uchun Vatan — shu yer. Hammamiz o‘z mamlakatimizning ma’lum qismidagina yashaymiz, ishlaymiz, xalq oldidagi xizmatimizni o‘taymiz hamda hayotimiz ham bevosita shu makon bilan bog‘liq. Tajriba tariqasida mahallamiz odamlari orasida “Mamlakatimizdagi hamma viloyatga borganmisiz?” degan kichik so‘rovnoma o‘tkazdim. Natija shuki, o‘n chog‘liq kishining atigi ikki nafarigina deyarli barcha viloyatga borgan ekan , ikkalasi ham kasb taqozosi tufayli.

Ayon bo‘lganidek, Vatan tushunchasi katta sarhadlarni ichiga oluvchi hudud mazmunini anglatsa-da, vatanparvarligimiz atrofimizdagi ma’lum hududdagina namoyon bo‘ladi. Ko‘pchiligimiz esa allaqachon uni tadbirbop tushunchaga aylantirib, asl mohiyatidan uzoqlashib ketganimizdan dil xira. Bugun vatanparvarlik tuyg‘usi har qachongidan ham zarurat ekan, uni asliga qaytarish uchun harakat qilish zamon talabiga aylandi. Buning uchun esa xos manzil sifatida mahalladan-da yaxshiroq joy bo‘lmasa kerak.

Davlatimiz rahbari joriy yil 12-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo‘lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur”, deya ta’kidladi. Vatanparvarlik tushunchasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotgan bugungi kunda bu burch eng quyi boshqaruv tuzilmasi bo‘lgan mahallalarda qanchalik amalga oshirilayotgani, albatta, qiziq.

— Mahallalarda mas’uliyatli, o‘zini jamiyat hayoti bilan bog‘liq hisoblaydigan yoshlar doimo bo‘lgan. Lekin sinchiklab nazar solsak, so‘nggi paytlarda ularning salmog‘i avvalgiga nisbatan kamaygandek, — deydi “Mashinasozlar” MFY raisi Mukarram Xudoyberdiyeva. — Elni birlashtiradigan tadbirlardan bo‘lgan hasharlarda bu, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ko‘z o‘ngimizda ulg‘aygan mahallamiz yoshlari hashar bo‘layotgan hududni panalab o‘tishga harakat qiladi, biror zarur yumushi bo‘lsa ham mayli edi, nariroqqa borib, telefon o‘ynab yoki boshqa arzimas ishlar bilan band bo‘lib turganiga ko‘p guvoh bo‘lamiz.

To‘g‘ri, hashar majburiy emas, biroq bizning yoshlik davrimizda hammamiz o‘zimiz bilib hasharlarda qatnashardik, kichik vatanimiz boshqa mahallalardan chiroyliroq bo‘lishini, nuroniylarning duo qilishini yaxshi ko‘rardik, yoshimiz ulg‘aygani sayin mahallaga bo‘lgan mehrimiz shahrimizga, shahrimizga bo‘lgan mehr esa butun Vatanimizga bo‘lgan sevgiga o‘zgara bordi. Shuning uchun eskilar “Vatan ostonadan boshlanadi”, degan bo‘lsa, ajab emas.

Lekin hozir biz yoshlikda unday edik, biz o‘smirlikda bunday edik, deb hikoyanavislik qilishning o‘zi bilan ish bitmaydi. Bugun xayrixohlik hissi haminqadar bo‘lgan yoshlar bilan alohida ishlashimiz, ularning dunyoqarashidagi yot fikrlarni yo‘qotishiga yordam berishimiz, Vatanni sevish insoniylikning asosiy tayanchlaridan biri ekanini uqtirishimiz kerak. Mashinasozlar mahallasining raisi sifatida buni mahallamizdagi nuroniylardan ham, ota-onalardan ham ko‘p iltimos qilaman. Chunki mahalla ham, Vatan ham bizdan keyin shu yoshlarimizga qoladi.

Mahalla raisining suhbatini tinglab, yoshi kattalarning vatanparvarligiyu hozirgi avlodning vatanparvarligi orasidagi tafovutni taqqoslab ko‘rish ishtiyoqi paydo bo‘ladi.

— Shimolda harbiy xizmat chog‘ida bir kuni o‘zga millat vakillari suhbatlashib, Toshkent va toshkentliklarning sha’ni haqida kurakda turmas gaplarni ayta boshladi, — deydi 68 yoshli Farhod bobo. — Qonim qaynab ketdi, hammasini ayamay ura boshladim, lekin ular ko‘pchilik, men yolg‘iz. Bo‘larim bo‘lgan, lekin ko‘nglim xotirjam. Sababi xalqimning, tug‘ilgan yurtimning sha’nini himoya qilishga hech yo‘qsa harakat qildim. Ishonasizmi, o‘sha zo‘ravonlar xizmatning oxirigacha qaytib Toshkent haqida yomon gapirmadi. Chunki u yerda bitta bo‘lsa ham o‘zbekning qoni qaynoq bolasi bor edi. Otamiz bizga shunday tarbiya bergan. “Noningdan so‘rasa, och-nahor bo‘lsa, ber. Lekin tuprog‘ingdan so‘rasa, kim bo‘lishidan qat’i nazar, bir hovuch ham berma”, derdi. Vatan degan tushuncha ongimda shunday muhrlanib qolgan.

O‘ylab qolaman, bugun ham farzandlariga shunday nasihat qiladigan, Vatanga mehr-muhabbat bilan farzand tarbiyalaydigan otalarimiz ko‘pchilikmi? Til o‘rgatib, hunarga o‘qitib, pul topmoqqa shaylab, Vatanni sevishni o‘rgatmoqni yodidan chiqarib qo‘yishmayaptimi?

Faxriy o‘qituvchi Ra’no buvining hikoyasi yanada qiziq.

— Endigina universitetga kirgan yillarim otamning yaqin o‘rtog‘ining o‘g‘lidan sovchi keldi. Onamning qistovi va maqtovi bilan uchrashuvga chiqishga rozi bo‘ldim, — deydi Ra’no buvi. — Yigit xushmuomala, shirinsuxan ekani shundoq ko‘rinib turardi. Lekin menga uning ko‘proq dunyoqarashi muhim edi. Undan kelgusidagi rejalari haqida so‘radim. U esa bu yerlarda qolish niyati yo‘qligi, imkon topilsa, bugunoq Vatanni tark etishga, o‘sha yerlarda bir umr qolib yashashga tayyorligini aytdi. Shu-shu, uyga bordimu onamga uzil-kesil rad javobi berishini tayinladim. Sababi, o‘sha paytlardayoq yaxshi sharoitga uchib, tug‘ilib o‘sgan makonini tashlab ketishga tayyor yigitni turmush o‘rtoq siymosida ko‘ra olmaganman. Keyinchalik eshitdim, u baribir xorijga ketibdi.

Deyarli barcha suhbatlarimdan bitta xulosa chiqaveradi — Vatanni seva olmagan odam hech narsani chin dildan seva olmas ekan. Biroq vatanparvarlik shunday fazilatki, qaniydi uni maktabdagi bitta fan yoki alohida ta’lim dargohi orqali barchaga birdek yuqtirib bo‘lsa! Yo‘q-yo‘q, vatanparvarlik inson umri davomida orttiradigan boylik, shirin darddir. U ilg‘or mamlakatlar safida yurti nomini ko‘rsa, quvonadigan shodlik, biror vatandoshi mag‘lub bo‘lsa, qo‘shilib o‘ksiydigan mushtiparlikdir. Qaniydi, bu jahon maydonida hammamiz bir xil shodumon, bir xil mushtipar bo‘lolsak. Tomirlarimizda oqayotgan qon Jayhun-u Sayxun suvlari ekanini birdek anglasak. To‘rt faslini telbalarcha sevib, “o‘zimizniki” degan tasavvur ila kapalagiga ham ozor bermasak, daraxtlarini kesmasak, oltin tuprog‘ini qog‘ozga alishtirmasak, uning nomini toptaganni tilini sug‘urib olgudek shashtimiz olovlanib tursa. Qaniydi, Vatan himoyasi faqat qo‘lda qurol bilan chegaralarni qo‘riqlash emas, uning sha’ni va nomini ham qo‘rish ekanini hammamiz birdek tushunsak. Bizdan zo‘ri, bizdan vatanparvari bo‘larmidi?!

So‘zimni esa yana o‘sha maktab darsliklarida o‘qiganim — takrori yo‘q go‘zal misralar bilan yakunlashga ruxsat bergaysiz:

Vatan — ona so‘zi naqadar laziz,
Sensan har narsadan mo‘tabar, aziz,
Hurmatingni saqlar har bir o‘g‘il-qiz,
Muqaddas, mo‘tabar, ulug‘ Vatanim,
O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan…

Islohotlar — amalda

PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH NIMA UCHUN MUHIM?

Jahonda ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar XXI asr pedagogikasining yangi paradigmalarini raqamli ta’lim transformatsiyasi asosida takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi.

Faxriddin ESONBOBOYEV,
pedagogika fanlari nomzodi

Nazariy va kasbiy bilimlardan unumli foydalanish ko‘nikmasi, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik, mustaqillik pedagog faoliyatining kundalik o‘lchovidir. Zamonaviy kadr uzluksiz ta’lim olish, o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini takomillashtirish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi lozim. Bu borada pedagoglarning tizimli malaka oshirishi muhimdir. Germaniyada weiterbildungspass (uzluksiz ta’lim pasporti) va ernkultur kompetenzentwicklung (kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim madaniyati) joriy qilingan, Rossiyada “LifelongLearning” (hayot davomida o‘rganish) prinsiplari malaka oshirish kurslarining qo‘shimcha va to‘ldiruvchi ta’lim dasturlariga tatbiq etilgan.

Dunyo tajribasiga ko‘ra, XXI asrda ochiq va yopiq shakllardagi qisqa muddatli kurslarni tashkil etish, malaka oshirish hamda kasbiy rivojlanishda muhim omil hisoblanmoqda. Bu esa pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish, o‘zini o‘zi muttasil takomillashtirish uchun shart-sharoit yaratishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim tizimidagi malaka oshirish tizimi tubdan takomillashtirilmoqda, pedagog kadrlarning kasbiy ehtiyojini qondirish yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Mobillik darajasini oshirish, o‘quv reja va dasturlarini aniq manzilli qilib yaratish, umumiy holatda malaka oshirishni diversifikatsiya qilish, uzluksizlikni ta’minlash imkoniyati kengaymoqda. Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog kadrlarning o‘z ustida muntazam ishlash, bilimini yangilash va boyitish, zamon talablari asosida kompetensiyalarni o‘z

vaqtida rivojlantirish ishlarini har uch yilda olib boriladigan malaka oshirish jarayonidagina amalga oshirib bo‘lmasligi endi hech kimga sir emas. Shundan kelib chiqib, bu holat tizimda ehtiyojga asoslangan malaka oshirishni joriy qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa yosh avlodga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish, ularni barkamol insonlar qilib ulg‘aytirish, Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarining to‘liq bajarilishiga zamin yaratadi.

Xo‘sh, mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarining rahbar kadrlari va professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi qanday amalga oshirilmoqda? Ushbu tizimda olib borilayotgan ishlar yetarlimi? Albatta, sohani takomillashtirish bo‘yicha tizimda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha mintaqaviy va tarmoq markazlari hamda rahbar xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha Bosh ilmiy-metodik markaz faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimizning 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, 2019-yil sentabr oyidan boshlab malaka oshirishning bevosita va kasbiy faoliyatga aloqador shakllarini variativ hamda bir-birini to‘ldirish tamoyili asosida rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirish tizimi amaliyotga joriy etildi. Mazkur farmon ijrosi doirasida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi qaroriga muvofiq, malaka oshirishning an’anaviy (malaka oshirish markazlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qish) shakli bilan birgalikda rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatiga aloqador malaka oshirishning mustaqil va muqobil hamda ular tarkibidagi uch yoshga to‘lmagan yosh bolasi bo‘lgan ayollar, pensiya (nafaqa) yoshidagilar, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun masofaviy malaka oshirish shakllari amaliyotga joriy etildi. Malaka oshirishning davriyligi esa uch yilda kamida bir marta qilib belgilandi.

Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malaka oshirish kurslari uchun ta’limning 25 sohasi bo‘yicha malaka talablari hamda 223 malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv reja va dasturlari ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Tasdiqlangan o‘quv dasturlari bo‘yicha 180 ga yaqin xorijiy mutaxassisdan taqrizlar olindi. Ushbu tasdiqlangan o‘quv reja va dasturlar asosida o‘quv-uslubiy majmualar ishlab chiqilib, Bosh ilmiy-metodik markazning elektron kutubxona (lib.bimm.uz) tizimiga kiritildi.

Mazkur sohada har yili oliy ta’lim muassasalarining o‘rtacha o‘n ming nafar rahbar va pedagog kadrlari o‘z malakasini oshiradi. Tizimda so‘nggi uch yilda oliy ta’lim muassasalarining 26,5 mingdan ortiq rahbar va pedagog kadrlari malaka oshirgan. Tinglovchilarning 5 665 nafari to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaklda malaka oshirish markazlarida, 13 ming 808 nafari masofaviy shaklda, 7 196 nafari esa muqobil shaklda ishtirok etgan.

Quvonarlisi, muqobil shaklda malaka oshirgan tinglovchilar orasida yakka mualliflikda darslik va o‘quv qo‘llanma chop etgan, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiya ishlariga ilmiy rahbarlik qilgan, fan doktori va falsafa doktori dissertatsiyasini himoya qilgan, xorijda malaka oshirgan va stajirovka o‘taganlar ko‘p. 17 nafar tinglovchi esa O‘zbekiston Fanlar akademiyasi hamda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo‘lgan holda malaka attestati olgan.

Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish kurslarida ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishda ta’lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish yaxshi samara berishi tabiiy. Chunki bu jarayonda tahlil va taqqos orqali o‘qish, ishlash imkoniyati mavjud. Oxirgi uch yilda darslar malaka oshirish kurslari o‘quv jarayoniga Yevropa, AQSH, MDH va Osiyo davlatlaridan taklif etilgan mutaxassislar ishtirokida tashkil qilindi.

Malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun raqamlashtirilgan elektron ta’lim resurslari bazasi, malaka oshirish markazlaridagi o‘quv jarayonini yuritishga mo‘ljallangan elektron tizim, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy faoliyat natijasini baholashga qaratilgan o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ish materiallarini qamrab oluvchi elektron portfolio tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, onlayn darslar va turli mavzudagi onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etish imkoniyatini beruvchi platforma, videodarslar, mahorat darslari va boshqa o‘quv media kontentlar portali, malaka oshirish kurslari o‘quv jarayoni nazorati elektron monitoring tizimi orqali tashkil etilgan.

Markazlarda o‘quv jarayonida dars berayotgan professor-o‘qituvchilar, tajribali amaliyotchi mutaxassislar faoliyati tahlilidan kelib chiqib, ularga bazaviy lavozim maoshining 30 foizigacha oylik ustama belgilangan.

Mashg‘ulot o‘tkazish uchun soatbay ish haqi to‘lash sharti bilan jalb etilgan malakali mutaxassislar soatbay haq to‘lash miqdorining 20 foizigacha ko‘paytirilgan holda moddiy rag‘batlantirilmoqda.

Binobarin, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy vazifalardan biri ekanini teran anglashimiz lozim.

O‘rganishlar davomida viloyatdagi boshqa tumanlarda ham ahvol yaxshi emasligiga amin bo‘ldik. Jumladan, Chiroqchi tumani axborot-kutubxona markazi 2-kasb-hunar maktabi yotoqxonasida joylashgan. Shuningdek, Muborak tumani axborot-kutubxonasining ham o‘z binosi yo‘q. Mirishkordagi markaz esa tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli binoda faoliyat ko‘rsatmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-mart, 53-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Achchiq haqiqat

YOTOQXONADA JOYLASHGAN KUTUBXONA

YOXUD KONSEPSIYADA BELGILANGAN MUDDATNING UCH YILI O‘TDI...

Sarvinoz qator qilib terib qo‘yilgan badiiy adabiyotlar orasidan “O‘tkan kunlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oltin zanglamas”ni birma-bir olib, bu asarlarni o‘qib chiqqani bois, yana qaytarib qo‘yarkan, negadir izlayotgan kitobi javonda yo‘q edi. Ustozi aytgan badiiy adabiyotlardan deyarli barchasini mutolaa qilib bo‘ldi. Endi oxirgi navbatda shuni o‘qimoqchi edi. Maktab kutubxonachisidan aynan o‘zi izlayotgan “Jimjitlik” romanini so‘ragandi, u ham ro‘yxatga qarab, afsuski, yo‘qligini aytdi. Esiz, dugonalaridan oldin kelib, shu kitobga egalik qilmoqchi edi. O‘zi maktab kutubxonasida ayrim adabiyotlar sanoqli. Shu sabab oldingi safar atigi bir donaligi bois, o‘sha kitobni dugonasi o‘qib tugatguncha kutishga majbur bo‘lgandi.

Bugun esa hammadan birinchi keldi. Lekin kitobning o‘zi yo‘q. Nima qilsa ekan? Qishloqda boshqa kutubxona bo‘lmasa.

Sarvinoz adabiyot fanidan a’lo baholarga o‘qiydi. Shu bois, ustozi ham u, albatta, aytilgan badiiy adabiyotlarni o‘qib kelishiga ishonadi. Shularni o‘ylab, Sarvinoz dadasidan ishdan qaytishda topolmagan kitobni olib kelib berishni iltimos qildi.

Shahar markazida ishlaydigan dadasi qizining kitobxonligidan sevinib, ishdan chiqqach, kechga tomon kitob do‘koniga yo‘l oldi. Bir-biridan qiziqarli adabiyotlar orasida qizi aytgani yo‘q edi. Sotuvchi esa aynan shu kitob sotilib ketganini aytdi. Qiziq bo‘ldi, deya boshqa kitob do‘koniga bordi. Afsuski, bu yerda ham yo‘q. O‘zi shaharda sanoqli kitob do‘koni bor. Lekin shular orasida izlagan kitob topilmasa. Boshqa qayerdan izlash mumkin?

Ikki kun davomida tanish maktablardagi kutubxonachilardan surishtirdi. Topilmadi. Har bir tumanda axborot-kutubxona markazlari borligini eshitgach, yaqinroq tumanga yo‘l oldi.

U tuman markaziga borib, kutubxonada ishimni bitkazib, tezda qaytaman, deb o‘ylagandi. Bunday bo‘lmadi. Tuman axborot-kutubxona markazini topgunicha kunning yarmi o‘tdi. Kimdir u tarafda desa, yana birovi boshqa joyni ko‘rsatdi. Ayrimlar umuman bilmasligini aytdi. Anchagina sarsongarchilikdan so‘ng sobiq kollej binosi yotoqxonasida ekanini aniqladi. Bir chekkada joylashgan kutubxonaning ahvolini ko‘rib, bu yerda izlaganini topolmasligiga amin bo‘ldi. Taxmin qilganidek, so‘ragan kitobi yo‘q edi.

Uyiga kechga tomon toliqib borgan ota qizining savol nazari bilan qarab turganiga nima deb javob berishni bilmasdan jim qoldi.

YOTOQXONALARDAN JOY OLGAN MARKAZLAR

Yuqoridagi holat oddiy to‘qima emas. Aynan bugungi kunning voqeligi. Biz ham Qashqadaryo viloyatidagi axborot-kutubxona markazlarining ayni paytdagi ahvoli bilan tanishishga harakat qildik.

Afsuski, biz izlagan birinchi manzil — G‘uzor tumani axborot-kutubxona markazi holatini arzigulik, deb bo‘lmaydi. Tuman markazidan taxminan besh-olti kilometr olisda 2-kasb-hunar maktabi yotoqxonasining birinchi qavatida joylashgan. Sharoitlar haminqadar.

— 2020-yildan buyon shu binoda bir amallab ishlayapmiz, — deydi G‘uzor tumani axborot-kutubxona markazi rahbari Gulshoda Ahmedova. — Aholi uchun juda noqulay manzil. Bundan tashqari, xonalarimiz talab darajasida emas. Qishda sovuq, yozda issiq. Hech kim e’tibor qaratmayapti. Tuman hokimligiga, yuqori tashkilotlarga yozma murojaat qilganmiz. Tayinli javob yo‘q. Tuman hokimimiz har safar “Shoshilmay turing, joy qilib beramiz”, deydi. Shuningdek, har yili yangi bino qurish dasturga kiritildi, deyishadi. Lekin amalda yo‘q. Hozir pensionerlar ko‘p e’tiroz bildirmoqda. Gohida yoshlar ham bu manzilni topolmay sarson. Yaqinda tuman markazida nuroniylar maskani barpo etildi. Shu binoning yerto‘lasidan joy beramiz, kelib qabul qilib olinglar, deyishdi. Borib ko‘rsak, o‘zi bir qavatli imorat. Uning yerto‘lasi kutubxona talablariga javob bermaydi. Xonalari qorong‘u. Shu bois, u yerga bormadik. Yaxshi kunlar kelib, zamonaviy xonalarda ishlash umidida yashayapmiz. O‘quvchilarning e’tirozlari bo‘lsa-da, chidashga majburmiz. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan kishilarning bu yerga kirib-chiqishiga sharoit qilinmagan. Xullas, xonalar axborot-kutubxona markazi me’yoriy talablarga javob bermaydi.

> **Yakkabog‘ tumanida ham axborot-kutubxona markazi o‘z binosiga ega emas. 2020-yildan buyon markaz bir paytlar kollejga qarashli bo‘lgan binoda faoliyat yurityapti. Yangi bino barpo etilishi borasida tuman hokimligiga murojaat qilingan bo‘lsa-da, haligacha amaliy natija yo‘q.**

Kitob tumanidagi axborot-kutubxona markazining ahvolini ham yaxshi deb bo‘lmaydi. 1-kasb-hunar maktabining ikkinchi qavatida joylashgan. Bor-yo‘g‘i bitta xona berilgan. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi va Shahrisabz pedagogika institutining bir fakulteti ham bor ekan.

— Qish kelishi bilan bizda qiyinchiliklar boshlanadi, — deydi Kitob tumani axborot-kutubxona markazi rahbari Rayhon Xurramova. — Atigi bitta sovuq xonada ishlashning o‘zi bo‘lmaydi. Qish boshlansa, xavotirimiz yanada ortadi. O‘quv zali ham alohida emas. Rosti, yarim soat o‘tirib kitob mutolaa qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun yoshlar ko‘p kelavermaydi. Imkon darajasida kitoblarni asl holicha saqlashga harakat qilib kelyapmiz. O‘n to‘rt kishi ishlaymiz. Boshqa xona yo‘qligi bois, kasb-hunar maktabi kutubxonasi ham shu yerda.

Nishon tumanidagi holat avvalgisidan yaxshiroq bo‘lganini aytish mumkin. Ko‘chib yurishdan bezor bo‘lgan markaz xodimlari bugun bo‘sh turgan tuman FHDYO binosidan qo‘nim topgan. Shunday bo‘lsa-da, bu yerda ham xonalar kutubxonaga moslashtirilgan, xolos. Isitish tizimlari ishlamaydi. Kutubxona uchun kerakli jihozlar yetarli emas.

— Oldingisidan bir oz yaxshi, — deydi Nishon tumani axborot-kutubxona markazi rahbari Asadulla Omonov. — Avval kollej binosida, keyin mahalla idorasida ishladik. Bu yerda sharoitlar tuzuk.

Yakkabog‘ tumanida ham axborot-kutubxona markazi o‘z binosiga ega emas. 2020-yildan buyon markaz bir paytlar kollejga qarashli bo‘lgan binoda faoliyat yurityapti. Yangi bino barpo etilishi borasida tuman hokimligiga murojaat qilingan bo‘lsa-da, haligacha amaliy natija yo‘q.

— Markazimizda yettita xona bor, — deydi Yakkabog‘ tumani axborot-kutubxona markazi rahbari Rahima Shahobova. — Xonalarimizda to‘liq xizmat ko‘rsatishga sharoit yetarli, deya olmaymiz. Adabiyotlarimiz ham talabga javob bermaydi. Imkon darajasida yaxshilashga harakat qilyapmiz. Tuman hokimligi ham jiddiy e’tibor qaratishga intilmoqda. Misol uchun, o‘tgan yili 200 million so‘mlik adabiyotlar xarid qilib berdi. Ta’mirlashda ham o‘zgarishlar bo‘lib qolar.

O‘rganishlar davomida viloyatdagi boshqa tumanlarda ham ahvol yaxshi emasligiga amin bo‘ldik. Jumladan, Chiroqchi tumani axborot-kutubxona markazi 2-kasb-hunar maktabi yotoqxonasida joylashgan. Shuningdek, Muborak tumani axborot-kutubxonasining ham o‘z binosi yo‘q. Mirishkordagi markaz esa tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli binoda faoliyat ko‘rsatmoqda. U joy, aslida, maktab sifatida barpo etilgani uchun yetarli shart-sharoitlar mavjud emas. Abonement va o‘quv zali 1 ta xonada joylashgan bo‘lib, foydalanuvchilar uchun juda noqulay. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan kitobxonlarga hech qanday sharoit qilinmagan hamda asbob-uskuna va texnika vositalari yetishmaydi.

Kasbi tumani axborot-kutubxona markazi 2023-yil iyun oyida yangi qurilgan Yoshlar va ma’naviyat markazi binosining 2-qavatiga ko‘chirilgan. Qisman bo‘lsa-da, sharoitlar yaxshilanib, kerakli jihozlar bilan ta’minlangan. Shahrisabz hamda Dehqonobod tumanlaridagi markazlar esa tadbirkorlar tomonidan barpo etilgan binodan foydalanib kelmoqda. Shahrisabz shahrida bugungi kunga qadar axborot-kutubxona markazi tashkil etilmagan.

Koson va Qarshi tumanlaridagi kutubxonalar barcha zaruriy talablarga javob beradigan binoda faoliyat ko‘rsatmoqda. Qamashi tumanida ham inshoot moslashtirilgan bo‘lsa-da, lekin axborot-kutubxona hisobiga o‘tkazilib, imkon darajasida shart-sharoitlar yaratilgan.

Viloyat bolalar kutubxonasi esa Qarshi shahridagi 34-maktabdan qo‘nim topgan. Kutubxona rahbari Nargiza Mahmudovaning ta’kidlashicha, joriy yilda dasturga kiritilib, alohida bino qurib berilishi rejalashtirilgan. Lekin bu aniqmi-yo‘qmi, hali biror gap aytishga erta.

O‘QUVCHI TALABI QONDIRILYAPTIMI?

Sayido Nasafiy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi mutasaddilari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga e’tibor qaratarkanmiz, aholi soniga nisbatan kitob qamrovi anchagina past ekanini ko‘rdik. Shu qatorda 2023-yilning dastlabki choragida axborot-kutubxona markazlariga kitoblar berilishiga nisbatan aholi mutolaasi G‘uzor hamda Dehqonobod tumanlarida 1,9 foiz bo‘lgan, qolgan tumanlarning aksariyati bir foizga ham yetmagan. Bu faqatgina axborot-kutubxonalar faoliyati bo‘yicha olingan tahlil. Ko‘rinib turibdiki, sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina.

Prezidentimizning 2019-yil 7-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, sohada bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilab berilgan. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari ikki oy muddatda tumanlar (shaharlar) markazlarida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish va ularning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun binolarni belgilangan tartibda ajratish, ajratilgan binolarni kapital ta’mirlashni ta’minlash, bunda tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari o‘quv zallari va boshqa xonalarda imkoniyati cheklangan shaxslar to‘siqsiz foydalanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish, shuningdek, zarur uskuna va texnika bilan jihozlash kabi qator vazifalar belgilangan. Qarorga 2019-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ham ilova qilingan. Ikki bosqichda amalga oshirilishi belgilangan konsepsiyada muhim vazifalar bajarilishi rejalashtirilgan. Demak, belgilangan muddatning uch yili o‘tib, to‘rtinchi yili boshlanmoqda. Ammo amalda nima ishlar qilindi?

Shu o‘rinda, bir gap. Kitob qanchalik bebaho ne’mat ekanini ko‘p va xo‘p gapiramiz. Ammo uning qadriga yetish uchun ham mutolaa zarur. Buning uchun esa axborot-kutubxonalarni aholidan chetlashtirish emas, aksincha, yaqinlashtirish zarur.

Yana bir gap. Aksariyat tuman axborot-kutubxona markazlari rahbarlarining aytishicha, sharoitlarni yaxshilash borasida tuman hokimlariga bir necha bor murojaat qilingan, afsuski, amalda siljish bo‘lmayapti. Hatto ayrim tuman hokimlari biror marta axborot-kutubxona markaziga kelmagan. Xulosa o‘zingizdan. Mavzuga esa yana qaytamiz.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Turmush chorrahalarida

TOG‘A VA ISH

Ertalab uyqudan ko‘zini ochishi bilan Nozimjon boshini yostiqdan ko‘tarishga shoshmadi. Yotgan joyida o‘yga toldi: “Bugundan ish topishga jiddiy kirishmasam bo‘lmaydi. O‘qishni bitirganimga ham 1 yildan oshdi. Sohani yaxshi o‘zlashtirdim. Ingliz, turk tillarini o‘rgandim, menimcha, yomon mutaxassis bo‘lmadim. “Ish kerak” deb shuncha tanish-bilishlardan surishtirdim, yoshi katta ustozlardan iltimos qildim. Hammaga bor ish menga yo‘q. Qachongacha ustalar bilan mayda-chuyda yumushlarni bajarib yuraman. Bo‘ldi, tog‘amning oldiga boraman. Bugun dam olish kuni, uyda bo‘lsa kerak. Tanishlari ko‘p, o‘zimga yarasha biror ish topib berar”.

Tog‘asi uyda ekan.

— Kel, jiyan, yaxshimisan?

— Tog‘a, o‘zingiz bosh qo‘shib, bir ish topib bersangiz, degandim. Kimdan so‘rasam, va’da beryapti, ammo tayinli ish chiqmayapti.

Tushkunroq kayfiyatda, o‘ziga ishonchi bir oz so‘nib borayotgan Nozimjon Toshkent politexnika universiteti diplomi, IELTS tizimida bilimi 6 ball bilan baholangani va turk tili o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirgani to‘g‘risidagi guvohnomalarni tog‘asining oldiga qo‘ydi.

— Bu yutuqlaring haqida aytmasang ham yaxshi bilaman, — dedi tog‘a hujjatlarga nazar tashlagan bo‘lib. — Endi bunday qilamiz: bular o‘zingda tursin. Men surishtirib, natijasini senga aytaman. Ish topamiz, jiyan.

Dushanba kuni tushdan keyin tog‘adan Nozimjonga qo‘ng‘iroq bo‘ldi:

— Jiyan, ertaga hujjatlaringni olib, falon idoraning kadrlar bo‘limiga uchrashasan, ishga kirmoqchiligingni aytasan. Tog‘am yubordilar, demagin, ular tanish-bilish orqali kelganingni bir-biridan sir tutadi. Shunchaki ism-familiyang bilan o‘zingni tanishtirib, sizlarda ish bo‘lsa, uyaltirmay ishlayman, deb ayt. Men tayinlab qo‘yganman.

Jiyanning ko‘ngli yorishib ketdi. “Baribir tog‘amning tanishlari ko‘p-da, muammoni bir zumda hal qilganini qarang, avvalroq aytsam bo‘lar ekan, shuncha vaqtim bekor ketmasdi”.

Ertasi kuni Nozimjon tog‘asining ishxonasiga shoshilib kirib keldi, yuzlarida quvonch.

— Katta rahmat, tog‘a. Sizning hurmatingiz juda baland ekan, darhol ishga qabul qilishdi. Bunday mutaxassis bizga kerak, deyishdi. Faqat sinov muddati bor ekan.

— Sinov muddati — rasmiyatchilik, har bir idora-tashkilotning ichki ish tartibi shunday. Nasib qilsa, muvaffaqiyat bilan o‘tib olasan. Barakalla, xursand bo‘ldim. Ishlaringning rivojini bersin, jiyan.

— Rahmat, tog‘a!

Nozimjon ketganidan so‘ng tog‘a jiyaniga aytolmagan gaplarini xayolidan o‘tkazdi: “Eh, jiyan-a, jiyan! O‘sha kuni sening tashvishing bilan internetga kirdim. Davlat tashkilot va idoralarining vakant ish joylari bo‘limidan senga xos mutaxassislik bo‘yicha bir necha e’lon bor ekan. O‘zimga ma’qulroq ko‘ringanini senga tavsiya qildim. Koshki, u idoradan kimnidir tanisam-bilsam ekan. Tanishim bo‘lgan taqdirda ham birovga bunday iltimos bilan murojaat qilishga o‘rganmaganman, shuni bilib ol. “Sizning hurmatingiz juda baland ekan...”, deysan. Aslida, mening emas, shunday sharoit va imkoniyat yaratib bergan davlatimizning hurmati oshyapti. Odamlarda borgan sari hayotga, kelajakka ishonch ortib boryapti. Faqat o‘zi uchun ozgina harakat qilishi kerak. Senda ana shu narsa yetishmadi, qunt va hafsala kamlik qildi. Hozir avvalgidek kattayu kichik ishlarni birdek tanish-bilish bilan bitiradigan zamon emas. Bugun senga o‘xshaganlarga katta imkoniyatlar yaratilgan”.

Tog‘a shularni o‘ylar ekan, “Mayli, bir kun kelib, mavridi bilan jiyanga bu gaplarni, albatta, aytaman”, deb o‘z ishiga unnab ketdi.

* * *

Darvoqe, Nozimjonning tog‘asini tanishtirish yoddan ko‘tarilay debdi-ku. Nozimjonning tog‘asi kim bo‘lardi — kamina.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 838.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Boboravshan G‘oziddinov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 21:05 Topshirildi — 23:25